

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

**131 – MG` GURUHI TALABASI
BEKCHANOV FARHODBEK JUMANAZAR O`G`LI**

**5111600 “MILLIY G`OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ
TA’LIMI” YO`NALISHI BO`YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLISH
UCHUN**

**BITIRUV MALAKA VIY
ISHI**

**MAVZU: O`ZBEK AYOLLARI ETNOMADANIYATI:
GENEZISI, XUSUSIYATLARI, MUAMMOLARI**

ILMIY RAHBAR:

F.F.D. DOTS. M. XAJIYEVA

URGANCH- 2017

Bitiruv malakaviy ishining titul varag`i

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX

(fakultet nomi)

MILLIY G`OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI

(kafedra nomi)

**O`ZBEK AYOLLARI ETNOMADANIYATI: GENEZISI,
XUSUSIYATLARI, MUAMMOLARI**

(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi:

F. Bekchanov

Rahbar :

f.f.d. dots. M. Xajiyeva

URGANCH - 2017

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX

(fakultet nomi)

MILLIY G`OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI

(kafedra nomi)

**BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO`YICHA
TOPSHIRIQLAR REJASI:**

- 1. Talaba Bekchanov Farhodbek.** Universitet rektorining «233-T §6»-sonli 19 dekabr 2016 yil buyrug`i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun **O`zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari** mavzusi tasdiqlangan.
- 2. Kafedra majlisining qaroriga binoan.** f.f.d. dots. Xajiyeva M. bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
- 3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:** Bitiruv malakaviy ish - kirish, 2 ta bob, 6 ta qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.
- 4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar.** O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig`ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.
- 5. Bitiruv malakaviy ishga _____**

ilova qilinadi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH JADVALI

№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2016 yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2017 yil yanvar
3.	Ishning kirish hismini tayyorlash	2017 yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil hilish	2017 yil mart
5.	II-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil hilish	2017 yil mart
6.	Ishning xulosasini tayyorlash	2017 yilaprel
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini tuzish	2017 yil aprel

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

f.f.d. dots. M.Xajiyeva

Bajaruvchi talaba:

F.Bekchanov

2016 yil «19» dekabr

Topshiriqlar rejasni va jadvali kafedra majlisida 2016 yil tasdiqlandi. (№ 8- sonli bayonnomma).

Kafedra mudiri: t.f.n.dots. U. Sheripov

(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Bekchanov Farhod

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: “O`zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari”

Bitiruv malakaviy ish hajmi: **86 sahifa**

Tushuntirish qismi: **72**

Ilovalar soni: -

Mavzuning dolzarbligi. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan birinchi kunlardayoq xalqimiz tarixiy - madaniy merosini qayta tiklash va undan jamiyatni ma`naviy yangilashda unumli foydalanish bosh vazifalardan biri deb e`lon qilindi. Chunki «jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o`zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o`z-o`zidan yuz bermaydi. Buning uchun, avvalo, asriy an'analar, tegishli shart - sharoit, tafakkur maktabi, madaniy - ma`naviy muhit mavjud bo`lmog`i kerak. Millatning tabiatida, qonida, nasl-nasabida ezgulik va ma`rifat sari intilish mafkurasi va qonuniyati jo`shturishi lozim.»¹ Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A. Karimov har bir kishi, millat, xalq o`z tarixini bilishni istaydi, shuning uchun olimlarimiz o`zbek xalqining tarixiy o`tmishi, o`zligi, ma`naviyati va madaniyati to`g`risida ilmiy yaxlit konsepsiya yaratishlari zarur deb ta`kidlaydi. «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma`naviyati orqali bilamiz, tarixining tag - tomirigacha nazar tashlaymiz.»²

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Bekchanov Farhod barcha fanlarni to`la o`zlashtirib, ularni amaliyotga qo`llash ko`nikmasiga ega.

¹Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Т.: Ўзбекистон, 2010.- 25 Б.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан курамиз. Т. 7. -Т.: Ўзбекистон, 1999. -144 б.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari maqsadga muvofiq. Bekchanov Farhod o`zi mustaqil ishlay oladi, mahsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O`zining mutaxassisligi bo`yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o`z ustida muntazam ishlaydi. Muomalasi yaxshi, ishga mas`uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda diplomant O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov va O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlaridan metodologik asos, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiya, matbuot va internet materiallaridan muhim manba sifatida foydalangan. Shuningdek, ishda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy Majlis palatalari yig`ilishlari materiallaridan ham keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishga qo`yilgan talablarning bajarilishi daroji.

Ish to`la talabga javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

f.f.d. dots. Xajiyeva M.

2017 yil «29 » aprel

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
MILLIY G`OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA’LIMI
YO`NALISHINING 131 – MG` GURUH TALABASI
BEKCHANOV FARHODNING BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA
T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: “O`zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari”

Malakaviy ishning hajmi. 16.300 so`zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 72 sahifadan iborat

b) ilovalar soni:-

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi. Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. Ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy o`rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi o`z aksini topgan bo`lib, to`la talabga javob berdi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha ma`lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to`la asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham ko`rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko`rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta’lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o`rganishda hamda ma`naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi:

N.Mahmudova

Viloyat Xalq Ta'lim Pedagog Hodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institute dotsenti

2017 yil «31» may

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI DAK TOMONIDAN BAHOLASH
MEZONLARI

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	“Xulosa” hismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e’tiborga olingan holda baholash mezonlariga o`zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti“Milliy g`oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo`nalishining bitiruvchisi Bekchanov Farhodning “**O`zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari**”

—iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi O`zlashtirish ko`rsatkichlarini belgilaydi.

Nº	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariiga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon hila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma’ruza	10	

	(axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi		
Jami:			

Davlat attestattsya komissiyasi majlisining qarori Mustaqillik ma'naviyatining rivojlanishida axloqiy madaniyat rolining orta borishi mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o`zlashtirish ko`rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2._____

DAK raisi:_____

A'zolari:_____

2017 yil «_____» _____

Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi kafedrasи

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: F. Bekchanov

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: “O`zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari”

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: f.f.d. dots. Xajiyeva M.

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2017-yil 2-iyunda o`tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisiga tavsija qilindi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib N. Mahmudova tayinlandi.

Kafedra mudiri:

t.f.n. dots. U.Sheripov

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo`yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

t.f.n. dots. O.Shixov

Urganch davlat universiteti
Tarix fakulteti
Milliy g`oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi
Milliy g`oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo`nalishi
5111600 ta'lim bakalavr

Tasdiqlayman

fakultet dekani _____ t.f.n. O.Shixov

“___” 2017 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: F. Bekchanov

Ishning mavzusi: O`zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari

2 iyun 2017 yil universitet rektorining “233-T §6” sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “___” 2017 y.

3. Mavzu bo`yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro`yxati.

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: “O`zbekiston”, 2012. - 160 b.
- 2.O`zbekiston Respublikasining Ta`lim to`g`risidagi qonuni. Toshkent 1997 - yil, 29-avgust
- 3.O`zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent 1997 - yil, 29 – avgust
4. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. - Т.: “Ўзбекистон”, 2009. - 40 б.
5. Каримов И.А. Жаҳон молиявий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари . - Т.: “Ўзбекистон”, 2009.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. - Т.: “Маънавият”, 2011.
7. Иномназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. Т., «Шарқ», 1998
8. Ибраҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси . Т.,
9. Имом исмоил Ал- Бухорий. Ал-адаб муфрат. Т., 1990.
10. Мирзакалон Исмоилий. Инсон одоби. Т., 1989.
11. Маънавият- жамият тараққиётининг асоси. «Ўзбекистон овози», 1995, 16 феврал.

4. Ishning maqsadi: O`zbek ayollari etnomadaniyatining genezisi, xususiyatlari va muammolarini O`zbekiston Respublikasining milliy taraqqiyoti konsepsiysi nuqtai nazaridan ma`naviy - madaniy tadqiq etish bitiruv malakaviy ishning maqsadidir. Ushbu maqsadga muvofiq quyidagi ilmiy - nazariy vazifalar belgilandi:

-o`zbek xalqi etnomadaniyatiga taalluqli nazariy konsepsiyalarni o`rganish va ularni yangi davr nuqtai nazaridan tahlil qilish;

-o`zbek xalqi etnomadaniyatining genezisi va xususiyatlari yangi tarixiy - madaniy manbalar asosida olib berish;

-o`zbek ayollari etnomadaniyatining ko`rinishlari va ijtimoiy - funksional belgilarini aniqlash;

-etnomadaniyatning o`zbek ayollari ma`naviyatiga ta'sirini va bu boradagi tarixiy

- madaniy tajribalarni o`rganish.

5. Chizma materiallar ro`yxati:

6. Maslahatchilar: f.f.d.dots. M.Xajiyeva, t.f.n.U.Sheripov, dots. A.Abdullaev.

Bo`limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. A.Abdullaev	22.12.2016	16.01.2017
O`zbek xalqi etnik madaniyati: ilmiy - nazariy konsepsiylar va ularning tahlili	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. A.Abdullaev	20.01.2017	14.02.2017
O`zbek xalqi etnik madaniyatining genezisi va xususiyatlari	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. A.Abdullaev	18.02.2017	14.03.2017
O`zbek ayollarining etnik madaniyati: o`ziga xos ko`rinishlari va belgilari	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. A.Abdullaev	15.03.2017	15.04.2017
Etnik madaniyat va o`zbek ayollarining ma`naviyati	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. A.Abdullaev	20.04.2017	25.05.2017
Diniy qadriyatlar va ularning o`zbek ayollari ma`naviyatidagi o`rni. O`zbek ayollarining oilaviy - maishiy marosimlari va ularning modernizatsiyalashuvi	f.f.d.dots. M.Xajiyeva t.f.n. U.Sheripov dots. A.Abdullaev	27.05.2017	2.06.2017

Ishga taqriz yozuvchi: Viloyat xalq ta'lim pedagog xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti dotsenti N. Maxmudova

7. Ilmiy rahbar: f.f.d. dots. M.Xajiyeva

BMI bajaruvchi talaba: F.Bekchanov

Kafedra mudiri: t.f.n.dots. U.Sheripov

MUNDARIJA

	KIRISH.....	2-6
I-BOB	O'ZBEK XALQI ETNIK MADANIYATI IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR OB'EKTI SIFATIDA.....	
1.1.	O'zbek xalqi etnik madaniyati: ilmiy - nazariy konsepsiylar va ularning tahlili.....	7-16
1.2.	O'zbek xalqi etnik madaniyatining genezisi va xususiyatlari.....	16-23
1.3.	O'zbek ayollarining etnik madaniyati: o'ziga xos ko'rinishlari va belgilari.....	23-25
II-BOB	O'ZBEK AYOLLARINING ETNIK MADANIYATI VA MA'NAVIYATI.....	
2.1.	Etnik madaniyat va o'zbek ayollarining ma'naviyati.....	26-40
2.2.	Diniy qadriyatlar va ularning o'zbek ayollari ma'naviyatidagi o'rni.....	40-58
2.3.	O'zbek ayollarining oilaviy - maishiy marosimlari va ularning modernizatsiyalashuvi.....	58-65
	XULOSA.....	66-68
	FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR.....	69-72

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji: O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan birinchi kunlardayoq xalqimiz tarixiy - madaniy merosini qayta tiklash va undan jamiyatni ma’naviy yangilashda unumli foydalanish bosh vazifalardan biri deb e’lon qilindi. Chunki «jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Buning uchun, avvalo, asriy an’analar, tegishli shart - sharoit, tafakkur maktabi, madaniy - ma’naviy muhit mavjud bo‘lmog‘i kerak. Millatning tabiatida, qonida, nasl -nasabida ezgulik va ma’rifat sari intilish mafkurasi va qonuniyati jo‘sh urishi lozim.»¹ Respublikamiz birinchi prezidenti I.A. Karimov har bir kishi, millat, xalq o‘z tarixini bilishni istaydi, shuning uchun olimlarimiz o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishi, o‘zligi, ma’naviyati va madaniyati to‘g‘risida ilmiy yaxlit konsepsiya yaratishlari zarur deb ta’kidlaydi. «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixining tag - tomirigacha nazar tashlaymiz.»²

I.A.Karimovning fundamental ahamiyatga ega ushbu ko‘rsatmasi o‘zbek ayollari etnomadaniyatini o‘rganishga ham bevosita taalluqlidir.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbliji quyidagi ilmiy - nazariy va ijtimoiy - amaliy ehtiyojlar, omillar bilan belgilanadi.

Birinchidan, o‘zbek xalqi tarixi va etnomadaniyati ko‘p asrlardan beri mutafakkirlar, tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga jalb etib keladi. Muqaddas «Avesto»da va antik davr tarixchilari (Plutarx, Strabon, Kutsiy Ruf va b.) asarlaridayoq ajdodlarimiz haqida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Islom madaniyatining O‘rta Osiyoga tarqalishi bilan o‘lkamiz xalqlari etnomadaniyatiga oid ilmiy, ma’rifiy, falsafiy, tarixiy, diniy asarlar paydo bo‘ladi va ular jahon tafakkuri xazinalaridan munosib joy oladi. Xorijlik olimlar, sayohatchilar esa o‘zbek xalqi tarixi va madaniyatiga oid tadqiqotlar olib bordilar. Ular ichida o‘zbek ayollari etnomadaniyatiga taalluqli risolalar va maqolalar ham bor.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Т.: Ўзбекистон, 2010.- 25 Б.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Т. 7. -Т.: Ўзбекистон, 1999. -144 б.

Mustaqillik yillarida mavzuga oid ko‘plab kitoblar, to‘plamlar va maqolalar chop qilindi, ayollarimizga bag‘ishlangan jurnal va gazetalar nashr etilmoqda, biroq ular ommabop, badiiy - ijodiy yo‘nalishlardagi izlanishlardir.

Ikkinchidan, madaniyat (xalq madaniyati) ichki tuzilishi va xususiyatlari, ijtimoiy borliqda namoyon bo‘lishi va tashkil etilishi, ma’naviy - tarbiyaviy hayotdagi o‘rni bilan murakkab, ko‘p qirrali, sotsiodinamik hodisadir. Etnomadaniyat esa ushbu hodisaning ma’lum bir xalq, millat ijtimoiy -tarixiy, ma’naviy hayoti, turmush tarzi bilan bog‘liq, etnosning tarixiy - madaniy paradigmasiga aylangan o‘zak qismidir.

Ijtimoiy - tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqi etnomadaniyatiga oid eng muhim belgilar va xususiyatlar xotin - qizlarimizning jasorati, sabr-toqati, an’analarga sadoqati, ma’naviy - madaniy boyliklarni asrab - avaylashi tufayli umrboqiyidir. Shuning uchun xotin -qizlarimiz etnomadaniyatini bilmasdan turib, o‘zbek xalqi tarixi va madaniyatini to‘la anglash qiyin.

Uchinchidan, mustaqillik yillarida Respublikamiz birinchi prezidenti va hukumati xotin - qizlarning ijtimoiy - madaniy hayotdagi mavqeyini oshirish, ularni o‘tkazilayotgan islohotlarning faol sub’ektlariga aylantirish, turmush farovonligini yuksaltirish, ijtimoiy himoya qilish, oilaviy va tender muammolarini o‘rganishga qaratilgan umum davlat miqyosidagi chora - tadbirlarni amalga oshirdi. 1998-yil “Oila yili”, 1999- yil ”Ayollar yili”, 2000-yil ”Sog‘lom avlod yili”, 2001-yil ”Onalar va bolalar yili”, 2002- yil ”Qariyalarni qadrlash yili”, 2003-yil ”Obod mahalla yili”, 2004-yil ”Mehr - muruvvat yili”, 2005-yil ”Sihat - salomatlik yili” deb e’lon qilindi, Respublika xotin-qizlar qo‘mitasi, Respublika «Oila» ilmiy tadqiqot markazi, «Mahalla» xayriya hamda onalik va bolalikni muhofaza qilish jamg‘armalari tashkil etildi. Xotin-qizlarni ma’naviy-madaniy va ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan nodavlat tashkilotlari («Ayol va jamiyat» instituti, Tadbirkor ayollar Assosiatsiyasi va b.) yuzaga keldi. Shunday bo‘lsa-da, xotin-qizlarimizni jamiyatni ma’naviy sog‘lomlashtirish, barkamol avlodni tarbiyalash, xalqimiz tarixiy - madaniy merosini tiklash ishlariga jalb etish, ularni tinmay o‘zgarayotgan va yangilanayotgan ijtimoiy hayot, jamiyat talablariga har

tomonlama javob beradigan insonlar sifatida kamol topishiga yordamlashish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

To’rtinchidan, ijtimoiy taraqqiyot mudom ma’lum bir g‘oyalar va mafkuralar atrofiga birlashgan sub’ektlar faolligining natijasi bo‘lib kelgan. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi ham xalqimizni milliy taraqqiyot manfaatlari atrofida birlashtirishga qaratilgan. «Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, - deydi I.A.Karimov, - mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili, dinidan qat’i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas’uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning beba ho merosi, milliy qadriyat va an’analarimizga munosib bo‘lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish-milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir.»¹ Bu o‘zbek ayollar etnomadaniyatini o‘rganishga milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etadi.

Beshinchidan, keyingi yillarda dunyoda ro‘y bergen tarixiy voqealar - sotsialistik lager va kommunistik g‘oyaning yemirilishi, globallashuv jarayonlarining kengayishi, turli qit’alar va davlatlarda yuzaga kelayotgan inqirozlar kishilarni,

Fr. Nitshe iborasi bilan aytganda, «barcha qadriyatlarni qayta baholash»²ga, olib kelmoqdaki, ushbu baholash goho ziddiyatlarga, hatto destruktiv xususiyatlarga ega. Inson hech qachon o‘zining ijtimoiy borliqdagi mavqeyi haqida o‘ylashdan to‘xtamaydi, u mudom yon-atrofida sodir bo‘layotgan voqealarni anglashga intiladi, murakkab muammolarga duch kelganida esa ijtimoiy - tarixiy tajribalardan najot, ideal izlaydi. O‘zbek ayollar etnomadaniyatida hozir hayot chorrahasida turgan yoshlar uchun ideal bo‘ladigan siymolar, simvollar, tajribalar mavjudki, ulardan samarali foydalanish ijtimoiy-tarbiyaviy, madaniy - ma’rifiy institutlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

¹ Каримов И.А. «Миллий истиколл ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар» рисоласидаги сўз боши // Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. -Т.: Ўзбекистон, 2001. -222 б.

² Ницше Ф. Воля к власти Опыт переоценки всех ценностей (1884-1888).- М.: ТОО «Транспорт», 1995.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari borasida ko‘p olimlar va prezidentimiz hamda birinchi prezidentimizni barcha asarlari nazariy va konseptual g‘oya bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, O. Hayitov¹, S. Safaeva², A.Shimmel³, V.A. Alimasov⁴,

M. Muxiddinov⁵, A.Fitrat⁶, Sh.K.Shoniyozov⁷, S Safaeva⁸ kabi olimlarni kiritish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. O‘zbek ayollari etnomadaniyatining genezisi, xususiyatlari va muammolarini O‘zbekiston Respublikasining milliy taraqqiyoti konsepsiysi nuqtai nazaridan ma’naviy - madaniy tadqiq etish bitiruv malakaviy ishning maqsadidir. Ushbu maqsadga muvofiq quyidagi ilmiy - nazariy vazifalar belgilandi:

-o‘zbek xalqi etnomadaniyatiga taalluqli nazariy konsepsiyalarni o‘rganish va ularni yangi davr nuqtai nazaridan tahlil qilish;

-o‘zbek xalqi etnomadaniyatining genezisi va xususiyatlarini yangi tarixiy - madaniy manbalar asosida ochib berish;

-o‘zbek ayollari etnomadaniyatining ko‘rinishlari va ijtimoiy - funksional belgilarini aniqlash;

-etnomadaniyatning o‘zbek ayollari ma’naviyatiga ta’sirini va bu boradagi tarixiy - madaniy tajribalarni o‘rganish.

Ishning ob’ekti. Etnomadaniyatning o‘zbek ayollari ma’naviyatiga ta’sirini va bu boradagi tarixiy -madaniy konsepsiyalari.

¹ Ҳайитов О. Тадбиркор аёл қандай бўлиши керак? // Оила, 2004, 1-сон. -62 б.

² Сафаева С. Аёллар масаласи: Умумижтимоий ва миллий жихатлар. - Т.: Ўзбекистон, 2003. -39-40 б.

³ Шиммел А. Жонон менинг жонимда. -Т.: Шарқ, 1999. -165 б.

⁴ Алимасов В. Аёлсиз кошона -ғамхона // Маърифат, 2002, 7 март.

⁵ Мухиддинов М. Аёллар илм-фанда. // Оила, 2004, 1-сон. -29-30 б.

⁶ Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. -Т.: Маънавият, 2000. -7 б.

⁷ Шониёзов Ш.К. Ўзбек халқининг этногенезига оид баъзи назарий масалалар. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998, 6 - сон. -33 б.

⁸ Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жихатлар. -Т.: Ўзбекистон, 2003.— 38 б.

Ishning predmeti. Etnomadaniyatning o‘zbek ayollari ma’naviyatiga ta’sirini va bu boradagi ma’naviy-ma’rifiy konsepsiyaning tahlil qilish.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan g‘oyalar, fikrlar va qo‘llanilgan yondashuvlar ijtimoiy falsafa, madaniyatshunoslik, etnosotsiologiya va etnologiya kabi fanlarni nazariy boyitishga hissa qo‘shadi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari. Prezidentimiz ma’ruzalari va birinchi prezintimizni asarlari, Respublika Oliy Kengashi xujjalari, respublika va viloyat faollari yig‘ilishlari materiallari matnida o‘z ifodasini topgan. O`zbekistondagi demokratik islohatlar, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-ruxiy o`zgarishlar tahliliga oid, mustaqillikni mustahkamlash dasturiga doir g‘oyalar bitiruv malakaviy ishimizning tub uslubiy asosi bo`ldi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy qismi.

Bitiruv malakaviy ish “Kirish”, ikkita bob, oltita paragrafni o‘z ichiga olgan, “Xulosa” hamda “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”dan iborat. Matnning umumiy hajmi 72 betni tashkil etadi.

I-BOB. O'ZBEK XALQI ETNIK MADANIYATI IJTIMOIY- MA'NAVIY TADQIQOTLAR OB'EKTI SIFATIDA

1.1. O'zbek xalqi etnik madaniyati: ilmiy-nazariy konsepsiylar va ularning tahlili

Vatanga, oilaga, hayotga va kelajakka ehtirom - ayolga, onaga ehtiromdan boshlanadi. Ayolini asragan el qudratli, onasini e'zozlagan farzandning toleyi baland bo'ladi. Zero, dunyodagi jamiki buyuk zotlar, jahongirlar oqila va dono onalar, go'zal tabiatli ayollar bag'rida o'sib-ulg'ayishgan. Shu bois ham ayolni azaldan muqaddas bilib, unga hurmat-izzat ko'rsatilgan. Ayol sha'niga qanchadan-qancha qasidalar, she'ru dostonlar bitilgan. Ammo ular hamma zamonlarda ham e'zoz topgan, ulug'langan, deya olamizmi?! Yaqin zamonlarni bir eslasak, bu savolimizga javob tayin bo'ladi. Ilgarilari o'zbek ayoliga dala ishchisi, bola tarbiyachisi hamda uy bekasi sifatida qaralgani hammamizning esimizda. Kunduzlari dalada ketmon chopib, tunlari beshik quchoqlab tong ottirgan ayollarimizning mashaqqatini hech kim tushunmadı. Uning orzu-umidlari sarobga aylandi, qobiliyati yuzaga chiqmay qolaverdi. Sog'lig'i haqida birov o'ylamadi. Ro'zg'oridagi kemtiklikni-ku, aytmang. Uchrashuvlarning birida bir tanishim onasi o'n uch farzandni tug'ib-tarbiyalab, voyaga yetkazganini, kunduzlari dalada ishlab, mol-holga qarash, kir yuvish, ovqat qilish va non yopish bilan ovora bo'lganini, uyidan 15 kilometr naridagi Xivani umrida bir martagina borib ko'rganini, 50 yoshida kasallikdan qazo qilganini g'am-anduh bilan gapirib berdi. Baxtimiz shundaki, istiqlol yillarida bunday ko'rimsiz manzaralarga chek qo'yildi. Ayollarimiz chinakamiga e'zoz-u hurmat, qadr topdi. Bugun tinib-tinchimas o'zbek ayoli - Senat a'zosi, rahbar, san'atkor, tadbirkor, vrach, o'qituvchi, fan arbobi, jahon chempioni, oila tayanchi va barkamol avlodning ulug' onasidir. Bugun ozod va obod yurtimizning barcha sohadagi dadil qadamida, erishayotgan olamshumul yutuqlarida xotin-qizlarning munosib hissasi bor. Ularga ko'rsatilayotgan beqiyos g'amxo'rlik hamda yuksak e'tibor tufayli mamlakatimiz ayollarining jamiyatdagi mavqeyi va nufuzi yuqori darajada. Istiqlol bois o'zbek

xotin-qizlarining baxt-u iqboli ochildi. Hozirgi kunda davlatimizning yuksak unvonlari va orden-medallariga sazovor bo‘lgan turli kasb sohibalarini, fidoyi va mehnatkash ayollarimizni sanab sanog‘iga etolmaysiz. Darhaqiqat, bugun o‘zbek ayollarini davlatimiz va jamiyatimizning ardog‘ida, e’tiborida. Hozirgi kunda onalik va bolalikni muhofaza qilish, opa-singillarimizning og‘irini yanada yengillashtirish, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, lo‘nda qilib aytganda, ayollik baxtini ta’minalash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar izchil davom ettirilmoqda. Bunda o‘tgan davrda qabul qilingan, jamiyatning barcha sohasida ayollar manfaatlarini ifoda etadigan o‘nlab me’yoriy hujjatlar huquqiy asos bo‘lib xizmat qilayotganini aytib o‘tish joiz. Mazkur hujjatlar doirasida amalga oshirilayotgan salmoqli ishlar jamiyatimizda ayollar mavqeyini yanada yuqoriga ko‘tarishga imkoniyat yaratmoqda. Chunonchi, “Sog‘lom ona - sog‘lom bola” dasturi doirasida sog‘liqni saqlash tizimida ulkan yangilanishlar yuz berdi. Zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan to‘liq jihozlangan qishloq vrachlik punktlari, diagnostika markazlari, tug‘uruqxonalar, skrining va perinatal markazlari ishga tushirildi. Onalik va bolalik muhofazasi ustuvor yo‘nalishga aylandi. Har bir ayolning sihat-salomatligini ta’minalash masalasi nazoratga olindi. Bunday g‘amxo‘rlikning yana bir muhim jihatni, xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlashning asosiy sharti sifatida ayollar sportini rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarda namoyon bo‘lmoqda. Tegishli tashkilotlar oilaviy, bolalar va ayollar sportini ommalashtirish bo‘yicha faol ish olib borayapti.

Biz intellektual boylik hukmronlik qilayotgan asrda yashayapmiz. Bunday sharoitda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash ulug‘ maqsad va vazifa hisoblanadi. Buni uddalashda ham oqila ayollarimizning o‘rni hamda ta’siri katta. Bugungi kunda ko‘plab farzandlarimiz jahon miqyosida o‘tkazib kelinayotgan nufuzli fan olimpiadalari, xalqaro ko‘rik-tanlovlari va sport musobaqalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, O‘zbekistonimizni dunyoga tanitmoqda. Ana shu jarayonga, oz bo‘lsa-da, hissa qo‘shayotganidan faxr-iftixor tuyaman. Mana, ellik yildirki, mакtabda bolalarga saboq berib kelaman. Ta’lim sohasidagi islohotlarning samarasini ko‘rib quvonaman. Yurtimizdagi barcha maktablar

muhtasham binolarga ega bo'ldi. Tizimga zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etildi. O'z navbatida, eng so'nggi rusumdag'i komputerlar, o'quv jihozlaridan foydalanilmoqda. Yoshlar esa nihoyatda bilimga chanqoq va zukko. Sevgan kasbimda ishlab, qadr topdim, el hurmatiga sazovor bo'ldim. Kamtarona mehnatlarim e'zozlanib, O'zbekiston Qahramoni degan ulug' maqomga erishdim. Qayerga borsam, bir paytlar o'zim ta'lim-tarbiya bergen shogirdlarimga duch kelaman. Ularning kamolini, hayotda erishgan nufuzini ko'rib, boshim osmonga yetadi. Mehnating samarasini ko'rish katta baxt, albatta.

Aminmanki, bugun ana shunday baxtga har bir o'zbek ayoli musharraf bo'layapti. Ularning ham o'z sevgan kasbi, oilada va jamiyatda o'z o'rni bor. Bu baxtiyorlikni o'quvchi libosida darsga oshiqayotgan qizchalar, zamonaviy korxonalarda mehnat qilayotgan qiz-juvonlar, bolalarga saboq berayotgan muallimalar, deputatlik faoliyatiga kirishgan ayol, namunaviy loyihamar asosida qurilgan uyida mammun yashayotgan, o'zimizda ishlab chiqarilayotgan yengil avtomobilni boshqarayotgan, sog'lom va xushvaqt farzandini erkalayotgan ayollar yuzida ko'rib, quvonchim ichimga sig'maydi. Bu biz, ayollarga hayot gultoji, deb qarab, jamiyatda tutgan o'rnimizni yanada mustahkamlash, har jabhada faolligimizni oshirish, har doim sog'lom bo'lishimizni ta'minlashga qaratilgan beqiyos e'zoz tufaylidir.

Etnik madaniyat (etnomadaniyat) har bir xalq, millat, etnosning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan o'ziga xos moddiy, ma'naviy, maishiy va ma'rifiy boyliklarini, olamni idrok etish, o'zlashtirish va o'zgartirish tajribalarini uz ichiga oladi. Ushbu boyliklar va tajribalarni o'rganmasdan, ulardagi ijobiy tomonlardan unumli foydalanmasdan turib milliy - madaniy taraqqiyotni ta'minlash qiyin. «Tarixning, tarixiylikning qimmati uning uzoq o'tmishga borib taqalishida emas, balki zamonaviy muammolarni hal etishga yordam berishidadir. Agar biz zamonaviy muammolarning kelib chiqish tarixini o'rgansak va negizlarini topsak, ularni yechish yo'llarini ham topamiz.»¹ Demak, muammoga tarixiy nazar ijtimoiy - tarixiy jarayonlarni qayta tiklash uchun emas, balki zamonaviy

¹ Ястерс К. Смысл и назначение истории. -М.: Республика, 1998.-С. 21

muammolarning mohiyatini anglash va ularni samarali yechish uchun lozimdir. Eng avvalo shuni aytish zarurki, ushbu yondashuvlar ijtimoiy - tarixiy rivojlanishdan o'ziga taalluqli yo'nalishlarni tadqiq etadi. Ularning har biri etnik madaniyatdan o'z tadqiqt maqsadlariga taalluqli belgilarni, jarayonlarni, o'zgarishlarni qidiradi va ularni ilmiy - nazariy baholaydi. Bu o'rinda insonning bilish faoliyatini o'rgangan B. Rasselning ogohlantirishini eslash o'rinni. «Bilish, - deb yozadi u, - biz bilan ajdodlarimiz o'rtasidagi o'tib bo'lmas jarlik usuliga tayanmasligi kerak»¹ «Bilish, birinchidan, faktlarni bilishga va ikkinchidan, faktlar o'rtasidagi umumiy bog' liqliklarni bilishga tayanishi lozim».² Ushbu bilishlar bilan bog'liq bo'lgan «aqliy harakatga yo'naltirilgan bilish»³ ham mavjuddir. Agar faktlarni idrok etish, bilish sub'ektiv xarakterga ega bo'lsa, aqliy harakatga yo'naltirilgan bilish ob'ektiv yoki ijtimoiy - amaliy yo'naltirilgandir. Shu bilan birga faylasuf, «inson bilimlari ishonchli emas, noaniq va cheklangan»⁴ deb ko'rsatadi. Shuning uchun biz o'zbek xalqi etnomadaniyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy - nazariy konsepsiylar va yondashuvlarni tahlil qilganda faktlarning ichki xususiyatlariiga, ular o'rtasidagi bog' liqliklarning ijtimoiy - amaliy ahamiyatiga diqqatimizni qaratamiz. Shu bilan birga barcha inson bilimlari «ishonchli emas, noaniq va cheklangan»ligini ham esda tutamiz. Ammo B. Rasselning ushbu tushkunlikka moyil xulosasi insonning aqlu idrokiga, bilish qobiliyatiga ishonchsizlikni uyg'otmaydi, balki uni tinmay izlanishga, to'plangan tajribalar bilan cheklanib qolmaslikka undaydi. Tarixiy-arxeologik yondashuv o'zbek xalqi etnomadaniyatining ijtimoiy - tarixiy paydo bo'lishi va rivojlanishini tarixiy - arxeologik manbalar, ashyolar, dalillar asosida tadqiq etadi. O'rtta Osiyo, I.Jabborov qayd etganidek, «o'ziga xos tarixiy - etnografik va xo'jalik - madaniy tiplar yaratgan mintqa. Unda yashovchi xalqlarning kelib chiqishi va tarixiy taqdiri umumiy xarakterga ega. Tarixda umumiy etnik ildizga ega bo'lgan, muayyan hududda joylashgan, ammo turli til, madaniy - xo'jalik tipdagi har xil elatlar doimo o'zaro yaqin munosabatlarda bo'lib, aralashib kelgan va uzoq

¹ Рассел, Берtrand. Человеческое познание его сфера и границы. -М.: Иностранный литература, 1957.-С. 455.

² Ўша жойда.

³ Ўша жойда.

⁴ Ўша жойда. -С. 540.

murakkab tarixiy jarayonni boshidan kechirgan.»¹ Demak, o‘zbek xalqi etnomadaniyati, tabiiy ravishda, O‘rta Osiyo mintaqasida yashayotgan qardosh xalqlar etnomadaniyati bilan bir ijtimoiy -tarixiy negizga ega, mohiyatan yaqindir. Buni Janubiy Turkmaniston, Janubiy Qozog‘iston, Tyan Shan ,Pomir etaklari, Kaspiy dengiz sohillari, Markaziy Farg‘ona, Xorazm, Surxondaryo viloyatlarida topilgan arxeologik topilmalarning o‘xshashligi ham ko‘rsatadi. Tarixiy - arxeologik topilmalar O‘rta Osiyoga aholi Old Osiyodan paleolit davridayoq ko‘chib kela boshlaganidan darak beradi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq o‘lkamiz xalqlarining etnik xususiyatlarini ifoda etuvchi «xo’jalik - madaniy tiplari» yuzaga kelgan.² Mahalliy qabilalar va jamoalarning integratsion aloqalari umumiy ko‘rinishdagi etnomadaniyatning shakllanishiga asos bo‘lgan. Natijada ovchilik, baliqchilik, keyinroq esa dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan o‘lkamizning jug‘rofiy xususiyatlariga mos «xo’jalik - madaniy tiplari» tashkil topgan. XIX asrning so‘nggi choragi va XX asr boshlarida N.I.Veselovskiy, A.A.Divaev, N.I.Mellitskiy, V.V.Bartold, V.L.Vyatkin, Akrompolvon Asqarov, T.Mirg‘iyosov olib borgan tarixiy -arxeologik qazishmalar³ o‘lkamiz xalqlariga, shu jumladan, o‘zbek xalqiga xos turmush tarzi, xo’jalik yuritishi, savdo-sotiq ishlari, amaliy san’ati va og‘zaki ijodining etnik xususiyatlarini anglashga yordam berdi. Keyinchalik tarixiy arxeologik izlanishlarni A.Y.Yakubovskiy, G.P.Chabrov, G.V. Grigorev, A.P.Okladnikov, S.P.Tolstov, M.E.Masson, V.A.Shishkin, Y.G‘.G‘ulomov, V.D.Jukov, G.A. Pugachenkova, E.V.Rtveladze, V.V.Lunin kabi olimlar davom ettirdilar.⁴ Ushbu tadqiqotlarda O‘rta Osiyo

¹ Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. -Т.: Ўқитувчи, 1994. -19 б.

² Ўша жойда.—55 б.

³ Қаранг: Веселовский Н.И. Сообщение о раскопках в городище Афрасиаб близ Самарканда в 1865 г. ЗРАО. нов. сер. Т. II. 1887; Диваев А.А. Предание о присхождение узбеков. - Ташкент, 1900; Меллицкий Н.И. Ходжакентские надгробные надписи XIV столетия.-Ташкент, 1897; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т.1.-М.: Наука, 1963; Уники. История культурной жизни Туркестана. оч.ТИ. Часть I.-М.: Наука, 1963; Лунин В.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане(1895-1917г.г.).-Ташкент, 1958; Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб.- Т.: Фан, 1966.

⁴ Қаранг: Якубовский А.Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳакида. -Т.: 1941; Уники. Культура и искусство Средней Азии.-Л.: 1940; Чабров Г.П. Узбеки-археологи дореволюционного Узбекистана// Звезда Востока, 1957, № 1.; Основные принципиальные положения Среднеазиатской научной археологической школы / Археология Средней Азии. Тр. ТашГУ. Вып. 295, 1966.; Жуков В.Д. Развалины анамбля дворцовых зданий в пригороде средневекового Термеза. -Т.: 1940; Массон М.Е. Городище старого Термеза и их изучение.-Т.: 1959; Ртвеладзе Э. Средняя Азия-Закавказье-Рим // Ўзбекистон тарихининг долзарб

sivilizatsiyasining jahon sivilizatsiyalarida tutgan o'rni, uning Xitoy, Hindiston, Eron davlatlari va Yevropa qit'asi bilan integratsion aloqalari tarixiy - arxeologik manbalar bilan olib berildi. To'g'ri, ularda, ayniqsa sovet totalitar tuzumi davrida yaratilgan tadqiqotlarda Yevropotsentrizmga moyillik bo'rtib turadi. Biroq ularda ham o'zbek xalqi etnomadaniyatida o'ziga xoslik va ob'ektiv sabablar ta'sirida shakllangan innovatsiyaga moyillik yetakchi xususiyat ekanligi yakdillik bilan qayd etiladi. Mifologik-diniy yondashuv o'zbek xalqi etnomadaniyatini afsonalar, rivoyatlar, g'ayrihayotiy hikoyalari - miflar, diniy tasavvurlar orqali tadqiq etishdir. Miflar kishilar ruhini, badiiy - estetik qarashlarini, olam haqidagi tasavvurlarini ifoda etadi. Ayniqsa Sharq xalqlari o'z orzu xayollari va o'tmishini mifologik obrazlarda, tasvirlarda ifodalashga o'ta moyil ekanini kuzatamiz. Agar Yangi Dunyo va Yevropa kishisi qadimdan g'ayrihayotiy simvollarga ochiqdan ochiq kurashib kelsa,¹ Sharq xalqlarida mifologiyaga, g'ayritabiyy kuchga ega valiyalar, payg'ambarlar va avliyolarga ishonish hamon kuchlidir.² Shuning uchun ham miflar dan foydalilanigan badiiy asarlar xalqimiz, kishilarimiz his tuyg'ulariga tez ta'sir qiladi.³ Hozir dunyoda, xalqlar hayotida global o'zgarishlar kechmoqda. Sharq dunyosida yevropotsentrizm keng yoyilmoqda. Har yili Osiyo qit'asidan Yevropaga 4 mln.ga yaqin kishi ko'chib ketayotgani kuzatiladi. Bu jarayonlar tarixiy- madaniy paradigmalarga ta'sir etmay qolmaydi. Natijada xalqlar o'z etnomadaniyatining o'zagi (yadrosi) bo'lgan mifologik - diniy tasavvurlarini himoya qilishga o'tishi tabiiy holdir. Shuning uchun ham Sharq xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi ham o'zining diniy qadriyatlarini asrashga, zardushtiylik, islomga oid axloqiy - ma'naviy boyliklardan unumli foydalanishga intiladi. Mifologik - diniy yondashuvni tarixiy -madaniy, ma'naviy izlanishlarga N.Komilov, I.Karimov, I.Jabborov, H.Abdusamedov, U.Qoraboev, A.Saidov, T.Maxmudov, M.Imomnazarov, A.Choriev, T.Karim kabi olimlar tadbiq etib

муаммоларига янги чизгилар .—Т.: Шарқ, 1999.— II — 22 6.; Фуломов Я.Ф. Қадимги маданиятимиз изларидан.—Т.: Фан, 1960. ва б.

¹ Қаранг: Данэм Б. Человек против мифов. -М.: Иностранная литература, 1961; Рассел Б. Почему я не христианин?-М.: Изд. полит. литературы, 1987.

² Қаранг: Березиков Е. Святые лики Туркестана. -Т.: Камалак, 1992; Рушдий М.С. Авлиёлар сultonи Туронлик валийлар.-Т.: Камалак, 1995;

³ Қаранг: Муродов М. Ўзбек халқ анъанавий достонлари — этномаданиятнинг бадиий намуналари сифатида // Муродов М., Қорабоев У., Рустамова Р. Этномаданият. —Т.: Адолат, 2003.-179-186 б.

keladilar.¹ To‘g‘ri, ular o‘zbek xalqi etnomadaniyatini maxsus o‘rganmaydilar, biroq ularning izlanishlarida zardushtiylik va islom qadriyatlarning xalqimiz ma’naviyatiga ta’siri hamda undagi o‘rni milliy taraqqiyot nuqtai nazaridan ochib beriladi. Xalqimiz ruhiy - ma’naviy komillik masalalariga muhim e’tibor bergan, lekin u hayotiy muammolarni esdan chiqarmagan. Bu o‘rinda Naqshbandiyning («Diling Ollohdha bo‘lsin, qo‘ling-mehnatda») tariqatini eslash o‘rinlidir. Mashrab esa barcha ruhiy - ma’naviy izlanishlar markazida inson turishini ifodalab, «Shariat ham, tariqat ham, haqiqat ham mehnatdadur»² degan antropologik g‘oyani ilgari surgan. Ming afsuski, ushbu antropologik g‘oya keyinchalik, diniy mutaassiblikning ta’sirida rivojlantirilmadi.

V.A.Alimasov mustaqillik yillarda, bozor munosabatlari ta’sirida madaniy - ma’rifiy muassasalar va xalq ijodida yuz bergan innovatsion o‘zgarishlarni tadqiq etadi. Uning kuzatishiga ko‘ra, bugun kishilar orasida xalq an’anaviy ijodiga, ommaviy bayramlarga qiziqish ortib bormoqda. Madaniyat muassasalari tizimida xo‘jalik hisobida ishlayotgan dam olish, hordiq chiqarish, u yoki bu qiziqishlarni, madaniy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, hatto transnatsional ko’rinishdagi maskanlar paydo bo’lmoqda.³

M.H.Xolmatova oilaviy madaniyat va ayollarning oilaviy munosabatlar madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni hamda xususiyatlarini o‘rganadi. Oilaviy munosabatlar madaniyatining milliy belgilarini avaylash, asrash asosan ayollar zimmasiga tushadi.⁴

S.Safaeva ayollar muammosining umumijtimoiy va milliy jihatlarini tadqiq etadi. "Uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida, - deb yozadi u, - ayollar ijtimoiy -

¹ Қаранг: Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб.—Т.: Ёзувчи, 1996; Каримов И. Маънавият, фалсафа ва хаёт. —Т.: Фан, 2001; Жабборов И. Антиқ маданият ва маънавият хазинаси. — Т.: Ўзбекистон, 1999; Абдусамедов А. Диншунослик асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1997; Корабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. — Т.: Шарқ, 2001; Ртвеладзе э. В. , Саидов А., Абдуллаев Е.В. Очерки истории цивилизации древнего Узбекистана: государственность и право.-Т.: Адолат, 2000; Махмудов Т. «Авесто» хақида. —Т.: Шарқ, 2000; Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар.—Т.: Шарқ, 1998; Чориев А. Ҳазрати Султон тарихи ва Ҳазрати Башир маноқиби. —Т.: Шарқ, 1996; Карим Т. Мукаддас «Авесто» изидан. —Т.: Чўлпон, 2000 ва б.

² Қаранг: Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. К. 1.—Т.: Ёзувчи, 1996. — 83 б.

³ Қаранг: Алимасов В. А. Особенности развития культурно-просветительных учреждений в условиях перехода Узбекистана к рыночным отношениям. Автореферат... док. философ. наук., 2001. -С. 27-28.

⁴ Холматова М. Оиласвий муносабатлар маданияти ва соғ лом авлод тарбияси. -: Ўзбекистон, 2000. -4 -5 б.

madaniy hayotda qatnashibgina qolmay, uziga xos madaniyat ham yaratdilar. Uni "ayollar madaniyati" deb atash ham mumkin."¹

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek xalqi etnomadaniyatiga bo'lgan ilmiy qiziqishning doirasi juda keng, ularda, birinchidan, milliy, hududiy, ma'naviy -ruhiy, maishiy va umuminsoniy belgilar butun O'rta Osiyo xalqlariga xos voqelik sifatida tadqiq etiladi. Ikkinchidan, o'zbek xalqi etnomadaniyati azaldan uzida innovatsiyalarga moyillikni saqlab, uni rivojlantirib kelgan. Bu esa unga dunyo xalqlari bilan integratsiyaga kirishib taraqqiy etish imkonini bergen. Uchinchidan, o'zbek xalqi o'zining tarixiy - madaniy paradigmalarini asrab kelgan, ularni tashqi tazyiqlar tufayli yo'qolib ketishiga yo'l qo'yagan.

Jahon amaliyotida ayollar rivojlanishi dasturlarining ijtimoiy faollikni amalga oshiruvchi butun bir mexanizmi allaqachonlar ishlab chiqilgan. Jumladan, 1988 yilda Yevropa rivojlanish va boshqarish bo'limi rahnamoligida rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollarning tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun bir qator dastur-treninglar tarqatilgan.²

Ayollar ijtimoiy faolligi rivojlanishi dasturlarining Osiyoda amalga oshirilishi 1991-yilda Bangladesh va Filippin Respublikalarida boshlandi. Shu yili Hindistonda kasanachi (uyda ishlovchi) ayollar Assotsiatsiyasi faoliyatini ro'yobga chiqarish doirasida uzoq muddatli loyiha amalga oshirildi. Uning negizida «Udiogini» nohukumat tashkiloti tuzildi. Bu tashkilotning maqsadi Hindistonning barcha mintaqalari bo'ylab o'z faoliyatini tarqatish bo'lib, o'z oldiga ayollar tadbirkorligini rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Dasturning dastlabki loyihasi eng avval Norvegiya, Yaponiya va Avstraliyada qo'llab ko'rildi. Mazkur dasturni 1500 dan ziyod rahbar ayollar amalga oshirdi.

Taxminan shu yillarda O'zbekistonda yangi tuzilmaviy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'lik xotin-qizlar harakati yuzaga keldi. Hozirda O'zbekiston xotin-qizlar tashkilotlarining ko'pchiligi, o'z-o'ziga yordam ko'rsatish qo'llab-quvvatlash guruhlari va xayriya birlashmalaridir, ularning

¹ Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлар. -Т.: Ўзбекистон, 2003.- 38 б.

² Убайдуллаева Р. "Фаол ишловчи шахс" Ижтимоий фикр инсон хукуклари. 1999йил. №1-2. Б- 118-123.

faoliyati kam ta'minlangan va ishsiz ayollarga yordam berish, ularni yangi kasb va biznesga o'rgatish, uyda ishslashni tashkil etishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda bugungi kunda ayollarning o'rta va kichik biznesda keng ishtiroki uchun barcha imkoniyat va kafolatlar mavjud. Bu masalaning huquqiy jihatlari «Tadbirkorlikni rag'batlantirish haqida», «Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari haqida»gi va boshqa qonunlar, dasturlarda ko'zda tutilgan. Shuningdek, ilmiy-amaliy ishlanma va tadqiqotlar ham ayollar tadbirkorligining faollashuviga imkon yaratmoqda.¹

Jamiyatni boshqarish jarayonida faol ishtirok etayotgan yurtimiz xotinqizlari harakatiga oid misollar ko'p. Jumladan, O'zbekiston tadbirkor ayollarini assotsiatsiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi, «Orol qizlari» jurnali, tadbirkor ayollar «Kredit uyushmasi», «Olima ayollar uyushmasi», shuningdek jamoatchilik asosida tashkil etilgan mahalliy mintaqaviy xotin-qizlar tashkilotlaridir.

Xususan, O'zbekiston tadbirkor ayollarini assotsiatsiyasi «Tadbirkor ayol»ning bu yerdagagi bo'linmasi Yevroosiyo jamg'armasi bilan hamkorlikda «Huquqiy bilimlar loyihasini amalga oshirdi. «Internet tizimiga ulanish» loyihasi tanlovga tayyorlandi. «Tadbirkor ayol» Qoraqalpog'istonning eng kam ta'minlangan tumanlariga kichik kreditlarni tashkil etish bo'yicha BMT loyihasini amalga oshirishga kafolat berdi. Bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar kechayotgan davrda ayollar ijtimoiy maqomini mustahkamlash yo'lida muhim qadamlar qo'yilmoqda. 1997-yil oktyabridan boshlab BMT va Respublika xotin-qizlar qo'mitasining «O'zbekistonning rivojlanishida Gender sektori imkoniyatlarini mustahkamlash» loyihasi amalga oshirila boshladi. «Gender va rivojlanish» byurosi strategiya va axborot ta'moti ishlarini muvofiqlashtiradi, ayni paytda ayollar ta'limi, ularning imkoniyatlariga qarab tayyorlash va qayta tayyorlash markazi bo'lib xizmat qiladi. Bahs guruhi huquqiy idoralarda yuqori mansabdorlar bilan genderli rejallashtirish va barcha darajalarda rivojlanish bo'yicha ishlarni olib boradi.

¹ Сухомлинова М. “Аёллар ожиза эмас” Фан ва турмуш. 2001 йил. №3. Б-9.

Byuro hukumat va nohukumat tashkilotlari bilan birgalikda " Milliy platforma va harakatlar rejası» loyihasini muhokama qilish bo'yicha davra suhbatlari o'tkazadi. Mazkur byuro shuningdek, iqtisodiy tadqiqotlar markazi bilan «O'zbekiston xotin-qizlarining ahvoli haqida hisobot»ni nashrga tayyorladi. Ta'lif beruvchi markaz sifatida u to'rt yo'naliish- «Ayol va siyosat», «Ayol va salomatlik», «Ayol va iqtisodiyot», «Ayol va ta'lif» bo'yicha maqsadli guruhlarni tuzdi¹. Bu trening seminarlar ayollar maqomini oshirish, teng huquq va imkoniyatlarni yaratish, shuningdek ular ijtimoiy faolligi va o'z-o'zini anglashining oshishiga imkon yaratadi. Ayollar ijtimoiy maqomining mustahkamlanishi va rivojlanishiga esa barqaror bozor iqtisodiyoti, jahon hamjamiyati va jahon axborot makoniga integratsiyalashgan huquqi davlatning shakllanishi muhim shart-sharoit tug'diradi. Dunyo aholisi miqdor jihatidan erkak va ayollarga ajratiladigan bo'lsa, keyingisining soni ko'proq ekan, jumladan O'zbekistonda ham (51%) bu holatni kuzatish mumkin. Biroq, ular har doim ham o'zlarini ojiza deb hisoblashmaydi. Buni ayollarning bugungi kunda nafaqat ro'zg'orni, shuningdek jamiyatni boshqarishdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqib ham baholash mumkin.

1.2.O'zbek xalqi etnik madaniyatining genezisi va xususiyatlari

Etnik madaniyat genezisi va mohiyati nuqtai nazaridan ijtimoiy munosabatlarning madaniy boyliklar timsolidagi in'ikosidir. Shuning uchun har qanday etnik madaniyat o'z funksiyalari doirasida chegaralanib qolmasligi, jamiyatda, kishilar ongi va hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan dialektik bog' liqlikda qaralishi lozim. «Madaniyatning paydo bo'lishi unga tor mutaxassislik nuqtai nazaridan yondashishni bartaraf etib, madaniyatga insonni atrof muhitga moslashtiruvchi universal hodisa sifatida qarashni taqozo etadi.»² Biroq inson atrof muhitga moslashish bilan ham cheklanib qolmadi, u, bir tomon dan, moslashishga, ikkinchi tomon dan, uni o'z maqsad va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartirishga intiladi.³

¹ Нишонбоева К.В. "Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишининг маданий жихатлари. Т.; 1998 й.

² Маркарьян Э.С. Теория культуры и современная наука. -М.: Мысль, 1983. -С. 145.

³ Ўша жойда. -С. 146.

Madaniyatni insonning biologik jihatlari bilan bog‘ lab E.S.Markaryan shunday fikrga keladi: «Madaniyat biologik holatlardan tashqari sun’iy voqelik bo’lsa-da, u insonning biologik konstitutsiyasi (morfologik va b. xususiyatlari) bilan bog‘ liq va uni asrash funksiyasini bajaradi. Insonning ushbu biologik xususiyatlari va imkoniyatlari nafaqat madaniyatning namoyon bo’lish shakllarida o’z izini qoldirgan, shu bilan birga, uni ichdan belgilab bergen hamda uning rivojlanish strategiyasini belgilab bermoqda.»¹ Bu o’rinda insonning nafaqat yejish, ichish, kiyinsh ehtiyojlari, shu bilan birga, har bir ijtimoiy guruhning o’z ehtiyojlari va intilishlariga muvofiq madaniyat yaratish xususiyatlari ham nazarda tutiladi. Demak, o‘zbek ayollari etnomadaniyatini birinchidan, keng ijtimoiy munosabatlar, jamiyat hayoti, ikkinchidan, ayollarning ehtiyoj va intilishlari, turmush tarzi, psixologiyasi, oiladagi o’rni kabi omillar bilan bog‘ lab o’rganish zarur. Chunki etnomadaniyat umumiyligi - ijtimoiy hayotda o’zining ko’pqirrali, dinamik voqelik ekanini, guruhiy -differensial yondashganda esa ichki xususiyatlarini namoyon etadi.

Umumiy - ijtimoiy nuqtai nazardan qaraganda ayolga, uning intellektual va madaniy - ijodiy qobiliyatlariga har doim ham jamiyat ob’ektiv baho beravermagan. «Injil»da yozilishiga ko’ra, Xudo Odam Ato va Momo Havoni behishtdan quva turib, ayolga debdi:-Sening homiladorlik paytidagi mashaqqatlaringni bag‘oyat orttiraman. Sen dard bilan farzandlar tug‘asan. Ixtiyorning eringda bo’ladi, u esa senga hokim buladi.²

Insoniyat asrlar davomida ulug‘lab kelayotgan mutafakkirlarning, faylasuflarning ayol haqidagi fikrlari esa hayratlidir. Homer, «ayoldan ham halokatli narsa yo’q» deb yozadi.³

Fales, Suqrot, Platon, Aristotel, Budda, Konfutsiy, Shopengauer, Nitshe ayolning axloqiy, madaniy - ijodiy sifatlarini kansituvchi fikrlar bildirganlar.⁴

Ijtimoiy munosabatlarni qonunlar asosida yo‘lga qo‘yishni boshlab bergen Solon, erkak befarzand bo‘lsa, mulkini xotiniga yoki ayolning qarindoshlariga

¹ Ўша жойда. -С. 147.

² Карапг: Инжил (Ибтидо). -Стокгольм, 1992. -6 б.

³ Карапг: Энциклопедия афоризмов. -Минск, Совр. лит-ра, 1999. -С. 11.

⁴ Карапг: Алимасов В. Оиласда - хукмрон севги // Саодат, 2004, 1-сон. -22-23 б.

qoldirishi mumkin emas, deb ko‘rsatadi. «Ayol jamiyat ishlarini boshqarish haqida hech nimani bilmaydi.» Eriga xiyonat qilgan ayolni erkak qul qilib sotishi mumkin.¹ Erkak xiyonat qilsa, unga hech qanday jazo ko‘zda tutilmagan.

Sharq ijtimoiy, siyosiy va axloqiy -madaniy ta’limotlarining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shgan Konfutsiy er va xotin alohida xonalarda yashashini, ayol erkakka to‘la itoat etishi va jamiyat, davlat ishlariga aralashmasligini tartibga aylantirgan.² Bunday g‘ayriinsoniy, ayolning erk va huquqlarini, intellektual va madaniy qobiliyatlarini kamsituvchi urf - odatlar, qonunlar, munosabatlarni tarixdan istagancha keltirish mumkin.³

O‘lkamiz xalqlari tarixida ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rniga, axloqiy, badiiy - estetik jihatlariga, o‘z burchlarini bajarishiga, insoniy huquqlariga munosabatlar turlicha bo‘lgan. Zardushtiylik ayolni uy-xo‘jalik ishlarini olib borishda, urf - odatlarni saqlash va marosimlarni o‘tkazishda, hatto diniy tartiblarni qaror toptirishda erkaklar bilan teng hisoblagan.⁴ Shu bilan birga u ayollarga sehrgarlik bilan shug‘ul- lanishni taqiqlagan.⁵ Manbalar ko‘rsatadiki, zardushtiylik ayollarning ijtimoiy- madaniy, diniy hayotda qatnashish huquqlarini himoya qilgan, ularning oilaviy urf - odatlarni, marosimlarni asrashdagi o‘rnini qayd etgan.⁶

Turk xotin - qizlarining ijtimoiy hayotdagi o‘rnini va huquqi haqida L.N.Gumilyov quyidagilarni yozadi: "Xunnlar o‘sha davr fransuzlari, gotlari, arablari, slavyanlari va greklaridan ilg‘or ham, orqada ham emas edilar. Ularning ijtimoiy hayotida va siyosatida xotin -qizlar faol ishtirok etgan, bu yerda xotin - qizlar Xitoy, Hindiston va Erondagi kabi kamsitilmagan edi, bu turkiy qabilalarda

¹ Карап: Аристотель, Афинская полития. -М.: Наука, 1937. -С. 20.

² Карап: Конфуций. Жизнь. Учение. Мысли, изречения, афоризмы. -Минск, Совр. слово, 1998. -С.

³ Бу хақда кенгрок карап: Доктор Г.Плоссы. Женщина в естествоведении и народоведении. Антропологическое исследование. Кн. 1.-Сыктывкар-Киров, ПЕРЯ-МАА-ГИПП «Ветка», 1995; Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жихатлар. —Т.: Ўзбекистон, 2003; Усачёва Н. Женщина: её статус, судьба и образ в мировой культуре. - Алматы, Гылым, 1994 ва б.

⁴ Карап: Периханян А.Г. Общество и право Ирана в парфянский и сасанидский периоды. -М.: Наука, 1983. -С. 82-83.

⁵ Карап: Ўша жойда. -С. 8.

⁶ Карап: Махмудов Т. «Авесто» хакида. -Т.: Шарқ, 2000; Бобоев Х., Ҳасанов С. «Авесто»- маънавиятимиз сарчашмаси. -Т.: Адолат, 2001.

xotin - qizlar huquqi baland edi.¹" Qabila hayotida muhim o'rin egallagan ayollar ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi va institutlashtiruvchi madaniy-xo'jalik tiplarini yaratdilar. "Barcha aholi, deb yozadi Iso Jabborov, -umumiyo xo'jalik - madaniy tiplarga ega. Mintaqamizning tabiiy - geografik sharoiti ularning nafaqat xo'jalik faoliyatini, balki milliy - madaniy xususiyatlarini ham qisman belgilab beradi."² Ammo ushbu xususiyatlarning muhim shaklga kirishi ayollarning oilada "o'choq boshi", "uy bekasi" bo'lishi bilan bog'liqdir. To'g'ri, ilk ijtimoiy - tarixiy bosqich matriarxatda bunday funksiyani erkaklar bajargan, biroq asrlar o'tishi va ayollarning xo'jalik madaniy tiplarni yaratishga bosh -qosh bo'lishi bilan insoniyat sivilizatsiyaga qadam qo'ygan. Shuning uchun "Sivilizatsiya tarixi ayol o'zining nimaga qodir ekanligini sezganidan keyin boshlanadi. Ungacha odamlar yovvoyi tabiatning bejilov istaklariga bandi yashaganlar."³

Xo'jalik - madaniy tiplari bilan oilaviy va maishiy hayot tarzi bir - biriga bog'liqdir. Agar xo'jalik - madaniy tiplari o'troq yoki ko'chmanchi hayot, dehqonchilik, chorvachilik yoki kosiblik, hunarmandchilik kabilar bilan belgilansa, oilaviy va maishiy hayot tarzi yaratilgan moddiy hamda ma'naviy boyliklardan foydalanan xususiyatlari, amal qilinadigan oilaviy an'analarda namoyon bo'ladi. Tarixiy va etnografik manbalar ko'rsatadiki, o'zbek ayollari uy, turar joyini ozoda, saranjom - sarishta tutish, idish - tovoqlarni o'z mo'ljaliga qarab ishlatish, dasturxonga yeyiladigan narsalardan boshqa qurollar (bolta, tesha va b.)ni qo'ymaslik, oila a'zolari yig'ilganidan keyin dasturxon solish, ovqat qabul qilish, ostonada iflos chelak, supurgilarni qo'ymaslik, erkakka birinchi bo'lib salom berish, ular bilan «siz»lab gaplashish, hovlini erta tongda supirish, unga axlat, oqova to'kmaslik, suhbatlashayotgan kishilarning gap – so'zlariga yashirin qulog tutmaslik kabi maishiy - etnomadaniy qadriyatlarga qat'iy amal qiladi. Oilaviy

¹ Гумилев Л.Н. Древние тюрки. -М.: Товарищество «Клышников, Комаров и К», 1993. -С. 76-77.

² Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. —Т.: Ўқитувчи, 1994. -20 б.

³ Алимасов В. Аёлсиз кошона — ғамхона // Маърифат, 2002, 7 март.

munosabatlarni A. Fitrat, «Bani Odam madaniyatining asosi»,¹ «manzil tadbiri (ro'zg'or tebratish tadbiri)»²ni esa oila, ahil, tinchlikda yashash sharti deb atagan.

Axloqiy - ma'naviy tarbiya «odamning fe'l va harakatida yaxshi fazilatlarni shakllantirmoq demakdir.»³

O'zbek ayollari oilasi va farzandlari uchun yashaydi. Ular jamiyatdagi islohotlarning ma'nisini oilasi va farzandlari tarbiyasi bilan o'lchaydi. Axloq, odob ular uchun asosiy komillik, madaniyat o'lchovidir. Anbar Otin yozadi:

Ulg'ayursan, senda bor bo'lsa adab,

Ulg'ayursan, senga yor o'lsa adab,

Odam ersang, tashqi surata berma zeb,

Ona yurtingni hamisha ayla zeb.⁴

Demak, ayol komillikni faqat o'z oilasi va farzandlari bilan cheklab qo'ymaydi, u ona yurti taraqqiyotini ham uplaydi. Shu nuqtai nazardan u farzandlarining axloqiy -ma'naviy tarbiyasini mehnat, ijtimoiy - siyosiy faollik, vatanparvarlik, el -yurt istiqboli uchun yashash kabi fazilatlar bilan bog'laydi.⁵ Mustaqillik yillarida bu xislatlar o'zbek ayollari madaniyatining asosiy belgilariga aylandi.

Og'zaki ijod turlarida har bir xalqning, ijtimoiy guruhning dunyoga, tuzumga, o'zgarishlarga o'ziga xos munosabatlari aks etadi. Ayollar jamiyatdagi uzgarishlarga tez va ziyraklik bilan javob beradilar. Ular yaratgan allalar, maqollar, qo'shiqlar, ertak va afsonalar, o'zlari qahramoni bo'lgan dostonlarda ayollarimiz etnomadaniyatining muhim jihatlari badiiy - falsafiy tasvirlarda o'z aksini topgan.⁶

Huddi shuningdek, o'zbek (O'rta Osiyo) ayollar qadimdan o'z bayram va tomoshalariga ega bo'lgan. U.H. Qoraboevning yozishicha, «...xotin - qizlar bayrami O'rta Osiyoda qadimdan onalik urug'i hukmronligi (matriarxat) davrida ham bo'lgan ekan. Ma'lum bo'lishicha, bahor arafasidagi oy - «isfandarmo'z» deb nomlanib ayollar oyi hisoblangan. Shu oyning beshinchi kuni esa ayollarning eng

¹ Каранг: Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. -Т.: Маънавият, 2000. -7 б.

² Каранг: Ўша жойда. -8 б.

³ Ўша жойда. - 84 б.

⁴ Анбар Отин. Юртингни хамиша айла зеб. // Оила, 2004, 1-сон. -90 б.

⁵ Каранг: Рахимов М. Оилада меҳнат тарбияси // Оила, 2004, 1-сон. -56 - 59 б.

⁶ Каранг: Фолима Мусина. Туруннинг алп кизлари. (Бадеъа). -Т.: Ёзувчи, 1997.

katta bayrami hisoblangan.»¹ Shu munosabat bilan olim qiziqarli xulosaga keladi. «Biroq u o‘rtta asrlarga kelib ko‘pgina qadimiy bayramlar kabi yo‘qolib ketgan. XX asr boshida Yevropada vujudga kelgan xalqaro xotin -qizlar kuni, bizga yana o‘sha qadimiy bayramimizni qaytardi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.»²

U.H. Qoraboev ayollar bayramlari va tomoshalarini kuzatib, klassifikatsiya va tahlil qilib, ularni o‘ziga xos etnomadaniy voqelik ekaniga e’tibor beradi. Lekin u o‘zbek ayollarining etnomadaniyatini maxsus tadqiq qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymagan. O‘zbek xalqi etnomadaniyatida amaliy san’at alohida o‘rin egallaydi. San’at, ayniqsa amaliy san’at xalqning olamni idrok etish va o‘zgartirishga bo‘lgan intilishlarini yorqin aks ettiruvchi ijodiy - madaniy faoliyat turidir. O‘zbek ayollarining kashtachilik, do‘ppichilik, tikuvchilik, pazandachilik kabi an’anaviy ijod turlarida o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, buxorolik ayollar kashtachiligidagi sariq (tillo) va oq (kumush) iplarning yirik naqsh kompozitsiyalari ko‘zga tashlansa, Xorazm kashtachiligidagi jun yoki oddiy iplarda mayda gullar aks ettiriladi. Samarqand va Farg‘ona pazandachiligidagi dorivorlar, meva - chevalar, sabzavotlar rang barangligi ko‘zga tashlansa, xorazmliklar va qoraqalpoqliklarda asosan go‘sht, yog‘ni ko‘proq ishlatish kuzatiladi. Xorazm va Qoraqalpog‘istonda «ijjon» (maydalangan xom go‘sht), Qashqadaryoda tandir kabob sevimli ovqat sanalsa, Farg‘onada osh (choyxona oshi), Toshkent viloyatida qazili norin taomi an’anaga aylangan. O‘zbek ayollarida ushbu pazandachilik ko‘rinishlari shunchaki qorin to‘yg‘azish ehtiyojigina emas, ular alohida san’at darajasiga ko‘tarilgan va har bir hudud etnomadaniyatining tarkibiy qismiga aylangan faoliyat turlaridir.

O‘zbek ayollarida o‘ziga xos rekreativ dam olish va hordik chiqarish usullari bor. To‘g‘ri, dam olish va hordiq chiqarish millati, hududi, jinsi hamda kasb - koridan qat’iy nazar barcha insonga taalluqli voqelikdir. Biroq ularni o‘tkazish usullari nafaqat millatlar, xuddi shuningdek, ijtimoiy guruhlar, kasb -kor egalari, hatto jinslarda har xildir. Masalan, O‘rtta Osiyo ayollarida g‘azalxonlik kechalari

¹ Корабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. -Т.: Шарқ, 2002. -170 б.; Исмоилов Х. Ўзбек тўйлари. -Т.: Ўзбекистон, 1992. -164 -170 б.

² Ўша жойда.

o'tkazish an'ana bo'lgan. Unda asosan she'riyatdan, badiiy so'z san'atidan xabardor bo'lgan ayollargina qatnashgan. «Sust xotin» marosimi esa barcha ayollarga mo'ljallangan. Demak, ayollarning dam olish va hordiq chiqarishga qaratilgan an'analarida tor doira (maxsus tayyorgarligi bor ayollar) va keng doira, barcha ayollar qatnashishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ko'zga tashlanadi. Bunday xususiyat o'zbek xalqi etnomadaniyatining boshqa ko'rinishlarida ham uchraydi.

Etnomadaniyatning «tarixiy - etnografik va etnik tuzilishi qancha barqaror bo'lmasin mazkur etnoslar vaqt hukmi bilan doimo rivojlanib, o'zgarib turgan.»¹ Etnos bilan birga, tabiiy ravishda, uning etnomadaniyati ham transformatsiyaga uchragan, modernizatsiyalashgan. Ijtimoiy-madaniy hayotimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar o'zbek ayollarini ijtimoiy, siyosiy va huquqiy sohalarda o'ziga xos an'analar, turmush tarzi, qarashlar, faollik turlarini yaratishga undamoqda. Masalan, o'zbek ayollarining bugungi ishbilarmonlik va tadbirkorlik harakatlarini olaylik. Bu o'rinda o'zbek ayollari jahon ayollarining ijtimoiy faollik borasidagi ijobiy tajribalarini o'rganib, o'z imidji (ishbilarmonlik va tadbirkorlik madaniyati)ni yaratmoqda. Unga aqliy salohiyat, bilimdonlik, qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish layoqati, ijodiy yondasha olish, tadbirkor muomala madaniyati, turli toifa, jins va yoshdagi kishilarga fikrini tushuntira bilish, kuchli iroda egasi, o'z «men»iga xos fazilatlarini namoyon etish, talabchanlik, qat'iyat, ruhiy tetiklik, salomatlik zarur. Shuning uchun «hozirgi vaqtda ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lganlarning yarmidan ko'prog'i xotin - qizlar bo'lganligi sababli ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bozor munosabatlariga o'tish sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.»² Ushbu tadbirkorlik madaniyati zamonaviy o'zbek ayollarining hayotiy ko'nikmalariga aylanishi lozim. Bu o'rinda etnomadaniyat bilan zamonaviy madaniyat uyg'unlashib, o'zbek ayollarida yangi umuminsoniy, umumplanetar qadriyatlarning shakllanishiga olib keladi. Siyosiy,

¹ Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. -Т.: Ўқитувчи, 1994. -13 б.

² Ҳайитов О. Тадбиркор аёл қандай бўлиши керак? // Оила, 2004, 1-сон. -62 б.

huquqiy sohalarda ham shunday transformatsion va modernizatsion o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.¹

Aholi qatlamlari ichida ko'proq ayollar tarixiy-madaniy tajribalar - an'analar, qadriyatlar, urf -odatlar, to'y -yu tomoshalar va marosimlarga to'la amal qilish, ularni asrash uchun jon kuydiradi. Buni o'zbek ayoliga xos bo'lgan barqarorlikni asrash, oilani mustahkamlash, farzandlar sog' - salomatligi va baxt - saodatini uylash, topganini oilasiga sarflash, murosada yashash uchun o'z qiziqishlari, hatto huquqidan voz kechish kabi psixologik xususiyatlar bilan izohlash mumkin. To'g'ri, bular eng avvalo kishilararo, shaxslararo munosabatlarning shakllanish xususiyatlari bilan belgilanadi,² biroq ularda jinsiy - psixologik omillar ta'siri borligini inkor etish mumkin emas.

1.3 O'zbek ayollarining etnik madaniyati: o'ziga xos ko'rinishlari va belgilari

O'zbek ayollarida tarixiy - madaniy tajribalarga tayanish va ularni asrash etnomadaniy xususiyatdir. Hatto urushlar, inqiloblar, qayta qurishlar davrida ham ular ushbu etnomadaniy xususiyatlarini yo'qotmadni. Eng muhimi ushbu belgilar ulardagi umuminsoniy - axloqiy fazilatlar, diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib keladi. Shuning uchun ularga xalqimiz tarixiy madaniy qadriyatlariga mos hayo (ibolilik, iffatlilik, nomuslilik), axloq (poklik, andisha, bosiqlik, kamtarlik, samimiylilik, soddalik, tug' rilik, uyatchanlik, xushmuomalalik, yuvvoshlik), bardosh (sabr, qanoat, chidam), vafo (sadoqat, mehr -oqibat, vafodorlik), latofat (lobarlik, dilbarlik, nazokat, nafislik, xushsuratlik), bolajonlik (serfarzandlik, bolaparastlik), sha'n (g'urur, oriyat), mehnatsevarlik, fidoyilik, chaqqonlik, mehmondo'stlik, vatanparvarlik kabi xislatlar xosdir. Demak, axloqiy - ma'naviy xislatlar o'zbek ayollari etnomadaniyatining asosiy qismi, hatto negizi hisoblanadi. Aslida axloqiy - ma'naviy belgilarsiz etnomadaniyat yo'q, biroq ular har bir xalq va ijtimoiy qatlamlarda o'ziga xos ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ilm-fanga, diniy qadriyatlarga qiziqish ham o'zbek ayollariga xos xislatlardir. «Barcha yirik dinlar va diniy - e'tiqodiy oqimlarning asoschilari erkaklardir. Biroq,

¹ Қаранг: Женщина: её права и свободы. - Т.: 2001, -С. 21-22; 61-63 ва б.

² Фромм Э. Мужчина и женщина. -М.: ООО «Фирма» Издательство «АСТ», 1998. -С. 113-114.

ular o‘z e’tiqodlarining tarqalishi, eng avvalo ayollarga bog‘liq ekanini tushunganlar. Iso payg‘ambar xristianlikni targ‘ib qilishdan oldin, unga o‘z onasi Bibi Maryamni, Muhammad payg‘ambar esa o‘z rafiqasi Xadichani imonga keltirganlar. Gautama (Sakna Muni) ibodatxonalarida ko‘plab ayollar yashagan va ular buddizmnning yoyilishida katta rol o‘ynagan.»¹ Islom dinidagi ayollar masalasini tadqiq etgan olmon olimasi Annemarie Shimmel shunday xulosaga keladi: «Islomiy asarlardagi muslima ayollar obrazlarini o’rganib chiqish ideallarga yanada yaqinroq borish imkonini beradi.»²

Mustaqillik yillarda Respublikamiz ayollaridan 2487 nafari fan doktori va fan nomzodlari bo‘lgan. Ulardan aksariyati o‘zbek xotin-qizlaridir. Maxsus kuzatishlarning ko‘rsatishicha ayollarimizda tibbiyat, filologiya va biologiya fanlariga qiziqish yuqori. Shuningdek, kimyo, texnika fanlari, qishloq xo’jaligi, tarix, iqtisod, falsafa, huquqshunoslik, san’atshunoslik, psixologiya kabi ilm - fan sohalarida ayollarimiz erkaklar bilan teng va hatto ba’zan sermahsulroq ishlamoqda.³ Shu bilan birga M. Muhiddinov xotin - qizlarning umumiyligi madaniyatini yuksaltirish borasida «... - bozor iqtisodiyoti sharoitida ayollar psixologiyasidagi o‘zgarishlar va uning ijtimoiy oqibatlarini tadqiq etish; - ayollarning ijtimoiy mo’ljallari dinamikasini o’rganish; - tadbirkor ayol shaxsining ijtimoiy, siyosiy, psixologik xususiyatlarini o’rganish; - ayollar bandligi va ularni ish bilan ta’minalash borasidagi izlanishlar; - onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, ayollar huquqiy manfaatlarining himoya etilishiga yo’naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish; ayollarning ijtimoiy - siyosiy faolligini o’rganish; xotin - qizlarning madaniy - ma’rifiy qadriyatlari, milliy, dunyoviy, diniy qiziqishlarini tadqiq etish»⁴ zarur deb ko‘rsatadi. Etnomadaniyat mo’tlaq shakllangan, o‘zgarmas voqelik emas, u jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy jarayonlar ta’sirida, kishilarning ma’naviy, madaniy, ruhiy ehtiyojlari, qiziqish va talablari ta’sirida transformatsiyaga uchraydi, o‘z manfaatlariga mos ininnovatsiyalarni qabul qiladi.⁵

¹ Сафаева С. Аёллар масаласи: Умумижтимоий ва миллий жиҳатлар. - Т.: Ўзбекистон, 2003. -39-40 б.

² Шиммел А. Жонон менинг жонимда. -Т.: Шарқ, 1999. -165 б.

³ Мухиддинов М. Аёллар илм-фанда. // Оила, 2004, 1-сон. -29-30 б.

⁴ Ўша жойда. - 31 б.

⁵ Қаранг: Арутюнов С. А. Народы и культуры. Взаимодействие и развитие. -М.: Наука, 1988. -С. 182-184.

O‘zbek ayollari etnomadaniyatida esa u zamonaviy san’at turlari - estrada musiqasi, tasviriy san’at, xor san’ati, texnika ijodiyoti, turizm, fizkultura va sport, askiyabozlik, sirk san’ati kabilar bilan shug‘ullanishda ko‘rinadi. Ushbu ininnovatsiyalar o‘zbek ayollari etnomadaniyatini dam olish va hordiq chiqarish, ijodiy - madaniy qobiliyatlarini o‘sirishga qaratilgan yangi, noan’anaviy ijod turlari bilan boyitmoqda.

II-BOB. O'ZBEK AYOLLARINING ETNIK MADANIYATI VA MA'NAVIYATI.

2.1. Etnik madaniyat va o'zbek ayollarining ma'naviyati.

Ma'lumki, ayollar O'zbekiston tarixida ham, mamlakatimizda madaniyat va san'atning ravnaq topishida ham muhim rol o'ynagan. Ular Sharqda taomil bo'lgandek, yelkalarida oila tashvishlari va ro'zg'or yumushlari yukini ko'tarish bilan birga, ma'lum davrlarda davlatni boshqarishda ham faol ishtirok etishgan. Ularning farmonlari bilan me'moriy obidalar tiklangan. Ayollar milliy adabiyot, ayniqsa, hunarmandchilik rivojiga ulkan hissa qo'shishgan.

O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Ayollarni e'zozlash - hayotni e'zozlashdir" degan so'zлari respublikamizda xotin-qizlarga naqadar katta e'tibor qaratilganidan dalolat beradi. Jamiyat tarixida xotin -qizlarning ro'li beqiyosdir. Ayollarni e'zozlash va ularga hurmat ko'rsatish qadim Sharqning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Vatanimiz tarixi sahifalariga To'maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Nodirabegim, Zebuniso, Uvaysiy, Anbar Otin kabi ayollar nomi oltin harflar bilan bitilgan. Ularning vatan ozodligi yo'lida ko'rsatgan jasorati, qahramonligi, sabr-bardoshi, yuksak ma'rifati hamisha ibrat. Har bir davr yangi iste'dodli kishilarni yaratadi. Biz bugun ham Zulfiya, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Sora Eshonto'raeva, Galiya Izmaylova, Bernora Qorieva kabi madaniyatimiz va san'atimizning iste'dodli namoyandalari bilan faxrlanamiz. Ular kabi ko'plab xotin-qizlarimiz O'zbekistonning dovrug'ini dunyoga taratmoqda.

Shu bilan birga etnomadaniyat xalqning uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, turmush tarzi, tili, urf-odatlari, tashqi dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirish, o'zini, o'zligini idrok etish, anglash usullari, xullas, etnosning, millatning mavjudligini ifoda etuvchi ijtimoiy voqelikdir, O'zbek ayollar etnomadaniyati esa yuqoridagi tarixiy-madaniy boyliklar, ijtimoiy me'yorlar va tajribalarni, kelgusi avlodlarga uzatish

an'analarining o'zbek ayollari hayot tarzi va qarashlarida o'ziga xos shaklda aks etishidir.

Qadimda qabila hayotida muhim o'rinni egallagan ayollar ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi va institutlashtiruvchi madaniy-xo'jalik tiplarini yaratdilar. Ammo ushbu xususiyatlarning muqim shaklga kirishi ayollarning oilada "o'choq boshi", "uy bekasi" bo'lishi bilan bog'liqdir. To'g'ri, ilk ijtimoiy-tarixiy bosqich - matriarxatda bunday funksiyani erkaklar bajargan. Biroq asrlar o'tishi va ayollarning xo'jalik-madaniy tiplarni yaratishga bosh-qosh bo'lishi bilan insoniyat sivilizatsiya davriga qadam qo'ydi. Shuning uchun ham "Sivilizatsiya tarixi ayol o'zining nimaga qodir ekanligini sezganidan keyin boshlanadi. Ungacha xo'jalik-madaniy tiplari bilan oilaviy va maishiy hayot tarzi bir-biriga bog'liqdir. Agar xo'jalik-madaniy tiplari o'troq yoki ko'chmanchi hayot, dehqonchilik, chorvachilik yoki kosiblik, hunarmandchilik kabilalar bilan belgilansa, oilaviy va maishiy hayot tarzi yaratilgan moddiy hamda ma'naviy boyliklardan foydalanish xususiyatlari, amal qilinadigan oilaviy an'analarda namoyon bo'ladi.

O'zbek ayollari oilasi va farzandlari uchun yashaydi. Ular jamiyatdagi islohotlarning ma'nisini oilasi va farzandlari tarbiyasi bilan o'lchaydi. Axloq, odob ular uchun asosiy komillik, madaniyat o'lchovidir. Anbar Otin yozadi:

Ulg'ayursan, senda bor bo'lsa adab,

Ulg'ayursan, senga yor o'lsa adab.

Odam ersang, tashqi surata berma zeb,

Ona yurtingni hamisha ayla zeb,¹

Demak, ayol komillikni faqat o'z oilasi va farzandlari bilan cheklab qo'ymaydi, u ona yurti taraqqiyotini ham o'ylaydi. Shu nuqtai nazardan, u farzandlarining axloqiy-ma'naviy tarbiyasini mehnat, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, vatanparvarlik, el-yurt istiqboli uchun yashash kabi fazilatlar bilan bog'laydi. Mustaqillik yillarda bu xislatlar o'zbek ayollari madaniyatining asosiy belgilariga aylandi.

¹ Сафоева С. "Аёл ва дунё" //Тафаккур. 2000 йил. №2. Б-90-91..

O‘zbek xalqi etnomadaniyatida amaliy san’at alohida o‘rin egallaydi. Amaliy san’at xalqning olamni idrok etish va o‘zgartirishga bo‘lgan intilishlarini yorqin aks ettiruvchi ijodiy-madaniy faoliyat turidir. O‘zbek ayollarining kashtachilik, do‘ppichilik, tikuvchilik, pazandachilik kabi an’anaviy ijod turlarida o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, buxorolik ayollar kashtachiligida sariq (tillo) va oq (kumush) iplardan yaralgan yirik naqsh kompozitsiyalari ko‘zga tashlansa, Xorazm kashtachiligida jun yoki oddiy iplarda mayda gullar aks ettiriladi. Samarqand va Farg’ona pazandachiligida dorivorlar, meva-chevalar, sabzavotlar rang-barangligi kuzatilsa, xorazmliklar va qoraqalpoqlarda asosan go‘sht ko‘proq ishlatiladi. Xorazm va Qoraqalpog‘istonda «ijjon» (maydalangan xom go‘sht), Qashqadaryoda tandir kabob sevimli ovqat sanalsa, Farg’onada osh (choyxona oshi), Toshkent viloyatida qazili norin an’anaga aylangan. O‘zbek ayollaridagi ushbu pazandachilik ko‘rinishlari shunchaki qorin to‘yg’azish ehtiyojigina emas, ular alohida san’at darajasiga ko‘tarilgan va har bir hudud etnomadaniyatining tarkibiy qismiga aylangan faoliyat turlaridir.

Ijtimoiy-madaniy hayotimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘zbek ayollarini ijtimoiy, siyosiy va huquqiy sohalarda o‘ziga xos an’analar, turmush tarzi,qarashlar, faollik turlarini yaratishga undamoqda. Masalan, o‘zbek ayollarining bugungi ishbilarmonlik va tadbirkorlik harakatlarini olaylik. Bu o‘rinda o‘zbek ayollari jahon ayollarining ijtimoiy faollik borasidagi ijobjiy tajribalarini o‘rganib, o‘z imidji (ishbilarmonlik va tadbirkorlik madaniyati)ni yaratmoqda. Aholi qatlamlari ichida ko‘proq ayollar tarixiy-madaniy tajribalar-an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar, to‘y-u tomoshalar va marosimlarga to‘la amal qilish, ularni asrash uchun jon kuydiradi. Buni o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan barqarorlikni asrash, oilani mustahkamlash, farzandlar sog‘- salomatligi va baxtsaodatini o‘ylash, topganini oilasiga sarflash, murosada yashash uchun o‘z qiziqishlari, hatto huquqidан voz kechish kabi psixologik xususiyatlar bilan izohlash mumkin. O‘zbek ayollarida tarixiy-madaniy tajribalarga tayanish va ularni asrash etnomadaniy xususiyatdir. Hatto urushlar, inqiloblar, qayta qurishlar davrida ham ular ushbu etnomadaniy xususiyatlarini yo‘qotmadi. Eng muhimi, ushbu

belgilar ulardagi umuminsoniy-axloqiy fazilatlar, diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib keladi.

Ilm-fanga, diniy qadriyatlarga qiziqish ham o'zbek ayollariga xos xislatlardir. Barcha yirik dinlar va diniy-e'tiqodiy oqimlarning asoschilari erkaklardir. Biroq ular o'z e'tiqodlarining tarqalishi, eng avvalo, ayollarga bog'liq ekanini tushunganlar. Iso payg'ambar xristianlikni targ'ib qilishdan oldin, unga o'z onasi Bibi Mayramni, Muhammad payg'ambar esa o'z rafiqasi Hadichani imonga keltirganlar. Gautama (Sakia Muni) ibodatxonalarida ko'plab ayollar yashagan va ular buddizmning yoyilishida katta rol o'ynagan. Islom dinidagi ayollar masalasini tadqiq etgan olmon olimasi Annemarie Shimmel shunday xulosaga keladi: «Islomiy asarlardagi muslima ayollar obrazlarini o'rganib chiqish ideallarga yanada yaqinroq borish imkonini beradi».¹

Mustaqillik yillarda respublikamizda yuzlab ayollar fan doktori va fan nomzodlari bo'ldilar. Ulardan aksariyati o'zbek xotin-qizlaridir. Ma'lum bo'lishicha, ayollarimizda tibbiyot, filologiya va biologiya fanlariga qiziqish yuqori. Shuningdek, kimyo, texnika fanlari, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisod, falsafa, huquqshunoslik, san'atshunoslik, psixologiya kabi ilm-fan sohalarida ayollarimiz erkaklar bilan teng va hatto ba'zan sermahsulroq ishlamoqda.

Etnomadaniyat mutlaq shakllangan, o'zgarmas voqelik emas, u jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy jarayonlar, kishilarning ma'naviy, madaniy, ruhiy ehtiyojlari, qiziqish va talablari ta'sirida transformatsiyaga uchraydi, o'z manfaatlariga mos innovatsiyalarni qabul qiladi. O'zbek ayollari etnomadaniyatida esa u zamonaviy san'at turlari - estrada musiqasi, tasviriylar san'at, xor san'ati, texnika ijodiyoti, turizm, fizkultura va sport, sirk san'ati kabilalar bilan shug'ullanishda ko'rindi. Ushbu innovatsiyalar o'zbek ayollari etnomadaniyatini dam olish va hordiq chiqarish, ijodiy-madaniy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan yangi, noan'anaviy ijod turlari bilan boyitmoqda.

O'zbekiston Milliy universiteti va Texnika universitetida, respublika kollejlarida portretchi musavvira Aziza Mamatovaning "Munavvar siymolar"

¹ Нишонова О. "Ўзбек аёллари этномаданияти."//Жамият ва бошқарув. 2008 йил. №2. Б-91-92.

ko‘rgazmasi, o‘zbekistonlik musavviralarning "O‘zbekiston xotin-qizlar ijodiyoti" deb nomlangan ko‘rgazmalari o‘tkazildi. Xotin-qizlar qo‘mitasi musavviralarimiz asarlari ko‘rgazmasini kelgusida Rossiyada va Yevropa mamlakatlarida o‘tkazishni rejalashmoqda. Biz ishonamizki, ularning asarlari san’at ixlosmandlarini albatta xushnud qiladi.

Hindiston xotin-qizlar konsorsiumi tomonidan tashkil etilgan "Savdo va xalqaro hamkorlik" xalqaro ko‘rgazmasida o‘zbekistonlik tadbirkor ayollar faoliyati, zargar ayollarning ijod namunalari yuksak baholandi.

Xotin-qizlar qo‘mitasi qishloq mehnatkashlarining madaniy turmush darajasini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Keyingi yuz yillikda o‘zbek xotin-qizlari murakkab, mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishdi. Ular tutqinlikdan ozod bo‘lib, jamiyat ijtimoiy hayotida o‘zining munosib o‘rnini egallashdi. Mustaqil O‘zbekiston xotin-qizlari barcha sohalarda: siyosat, fan, madaniyat, biznes, ta’lim ishlarida faol ishtirok etmokda. Prezidentimizning "O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar" to‘g‘risidagi Farmoni xotin-qizlarning madaniy, ilmiy-ma’rifiy saviyasini yanada yuksaltirish yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Hozirgi kunda asosiy vazifalardan biri madaniyat va san’atning ma’rifiy ahamiyatini targ‘ib-tashviq etishdir. Qo‘mita tomonidan xotin-qizlarning madaniy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, o‘zbekistonlik musavviralarning asarlari teatr jamoalari respublikamizning turli mintaqalarida gastrollarda bo‘lishi an’anaga aylangan. Masalan, Milliy teatr jamoasi Samarqand viloyatida bo‘lib, "Ayolg‘u" spektaklini namoyish etdi. Bu spaktakl tomoshabinlarda juda katta qiziqish uyg‘otdi. Shuningdek, bu spektakl poytaxtning Bektemir va Sirg‘ali tumanlari xotin-qizlariga ham namoyish etildi.

Xotin-qizlarning san’atdan bahramand bo‘lishida Muqimiy nomidagi musiqali teatr, Alisher Navoiy nomidagi Katta davlat opera va balet teatri va boshqa jamoalar ham sidqidildan mehnat qilmoqda.

Xotin-qizlar qo‘mitasi madaniy-ma’rifiy ishlarga alohida e’tibor bermoqda. Birgina o‘tgan yilni o‘zida Navoiy, Xorazm viloyati va Qoraqalporiston Respublika kutubxonalarini va maktablariga 10 million so‘mlik darslik va badiiy adabiyot yuborildi.

Ayol va ijod o‘z mohiyatiga ko‘ra yaxlit mavzu. Tabiatning o‘zi xotin-qizlarni ijodkor qilib yaratib qo‘yibdi. Hozirgi paytda respublikamiz madaniy hayotida xotin-qizlarning roli yuqori darajada. Ularning o‘rni beqiyos. Xotin-qizlar, nazarimda, hamisha hayotga ishonch, umid bilan qaraydi. Bu ular qo‘l bilan yaratgan hunarmandchilik buyumlaridagina emas, tasviriy san’at va adabiy asarlarida ham yaqol namoyon bo‘lib turadi.

O‘qishda, ilm-fanda, ijodda, san’atda o‘z qobiliyatini namoyish etgan, shuningdek, respublika ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan yosh iste’dodli qizlarga davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti beriladi. 2000-yildan buyon 84 qiz shu mukofot sohibi bo‘ldi. Ularning aksariyati qishloq qizlari.

Ma’lumki, Turkistonda XX asrgacha Yevropa andozasidagi milliy teatr mavjud emas edi. Og‘zaki an’analarga asoslangan xalq teatri tomoshalarida esa xotin-qizlar ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lmagan.

Toshkentda 1921-yili o‘zbek tilida ilk bor G‘arbiy Yevropaning mumtoz asari F.Shillerning "Makr va muhabbat" dramasi qo‘yiladi. Nohaqlikning begunoh kurboni Luiza ro’lini birinchi o‘zbek aktrisasi Maqsuma Qorieva ijro etadi¹.

Tomoshabinlar o‘tirgan zalda xotin-qizlar ham anchagini. Ular paranji yopinib, yuzini berkitib olishgan. Spektakl to‘g’risidagi taqrizda ta’kidlanishicha, qahramon taqdiri va aktrisaning ijrosi tomoshabinlarni behad to‘lqinlantirib, hayajonga solgan. Juda ko‘p xotin-qizlar yig‘lashgan. Ayrimplari, hatto, xushidan ketib qolgan. Bu ajoyib asar va undan tug‘ilgan taassurotlar uzoq vaqt yodda saqlanadi. O‘zbek sahnasida aktrisalarning mahorat bilan ijro etgan rollari tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

¹ Кодирова З. “Ўзбекистон аёллари муаммо ва истиқбол” //Фан ва турмуш. 1999 йил. №3. Б-26-29.

Xotin-qizlar kechinmalarining nozik jixatlarini haqqoniy gavdalantirgan bu aktrisalar mahoratiga tomoshabinlarning yarmini tashkil etgan xotin-qizlar haqqoniy baho berishdi, olqishlashdi.

O‘zbek aktrisalarining har biri o‘ziga xos tarzda teatrga kirib kelishdi. Ularning taqdiri turlicha kechdi. O‘zbek teatrining mashhur aktrisasi Sora Eshonto‘raeva bolalar uyida ulg‘aygan, qizaloqligida ayol ro’lini erkaklar ijro etishardi. Yanga shakldagi teatr paydo bo‘lishi bilan esa professional aktyor va aktrisalarni tarbiyalab etishtirish zarurati tushldi. Bir guruh o‘zbek qizlari Moskva va Bokudagi teatr studiyalarida tahsil olib, bu kasbning sir-sinoatlarini o‘rganishdi. Ular orasida, jumladan, Xidoyatova N.Alieva, H.Nosirova va boshqa ko‘pgina aktrisalar bor edi. Ular o‘zbek teatri aktrisalarining birinchi avlodi edi. O‘zbek teatri tomoshabinlarini hamisha xotin-qizlarning ayanchli qismati mavzusi hayajonga soladi. O‘zbek aktrisalari fojeaviy rollarni yoqtirishadi va mahorat bilan ijro etishadi. Shu boisdan ular oddiy dramatik obrazlarni ijro etganda ham ularni fojeaviy ruh berib talqin qilishadi. Ayni chog‘da, o‘zbek aktrisalarning sa’y-harakati bilan o‘zbek aktyorlik maktabi shakllandi. Moskva teatr studiyasida

20-yillar o‘rtalarida tahsil olgan birinchi professional aktrisalar orasida Tursunoy Saidazimova ham bor edi. Uning sahnada mahorat bilan ijro etgan rollariga pedagoglar ham, hamkasblari ham, tomoshabinlar ham qoyil qolishgan edi. U juda iste’dodli aktrisa edi. Uning ovozi ham noyob, ta’sirchan edi. Uni "o‘zbek bulbuli" deyishardi. Aktrisaning kelajagiga katta ishonch bilan qarashardi. Ammo uning qismati fojeali bo‘ldi. Tursunoyni diniy mutaassiblikka berilgan qarindoshlarining ig‘vosiga uchgan eri pichoqpab o‘ldirdi. Mash’um voqeа sodir bo‘lgan 1928-yilda u endi o‘n sakkizga kirgan edi.

Xayriyatki, o‘zbek teatri tarixida bu kabi fojeaviy hodisalar quvonchli voqealarga qiyoslaganda kam. Ular sahnada milliy turmush tarzini, xotin-qizlarning milliy xarakterini, ularning o‘ziga xos ichki dunyosini beqiyos mehr va mahorat bilan ijro etishadi. Xalq turmushining "qaynoq" joylaridan olib yaratilgan obrazlarda albatta kutilmagan holatlar mujassamlashgan bo‘ladi. Sharq xotin-qizlarining turmushi turli ramz, shartliklarga to‘la. Ular mavjud an’analar va

urf-udumlarga qat'iy amal qilishlari kerak. Komik obrazlarda o'zbek aktrisalari o'zbek xotin-qizlari turmush tarziga singib ketgan "o'tmishdagi xurofot, bid'atlar"ni yorqin gavdalantirishadi. Masalan, ular erkaklarning oiladagi yetakchilik roli masalasiga, ularga og'ir botmaydigan tarzda hazil aralash nozik kinoya qilishadi.

Xotin-qizlar teatrda g'oyat qadrlanadi. Bunga albatta ular avvalo o'zlarining mehnatlari, izlanishlari bilan erishadilar. Qolaversa, erkaklar hamisha ayollarni ardoqlashadi, ularga mehr-muhabbat bilan qarashadi. Chunki ular go'zal yaratilgan. O'zbek teatr san'atining "kuchli yarmi" ham aktrisalarning hurmatini hamisha o'rniga qo'yishadi. Ular teatrda libos tanlovchidan tortib direktorlikkacha bo'lgan turli lavozimlarni bajarishadi. Toshkent San'at institutida bo'lg'usi rejissyorlar, aktyorlar, san'atshunoslar tahsil olishadi. Bu yerdagi talabalar va pedagoglarning yarmidan ko'pi xotin-qizlar. Bu odatdagi hol bo'lib qolgan. Qaysi teatrga, qaysi spektaklga kirmang, u yerdagi tomoshabinlar zalida asosan xotin-qizlar o'tirgan bo'lishadi. Ular hanuzgacha teatr sahnasidagi hayotni haqiqat, deb ishonishadi va hayot teatrga aylanishini orzu qilishadi.

Demak xulosa qilib shuni aytish mumkinki o'zbek ayollarining madaniy sohadagi faollikkari ancha yuqori darajada shakllangan. Istiqlol tufayli o'zbek xalqining tarixiy - madaniy merosini o'rganishga keng yo'l ochilgani hamda jamiyatni, o'tkazilayotgan islohotlarni insoniylashtirish Respublikamiz taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri sifatida e'tirof etilgani ma'naviy madaniyatni yangi davr nuqtai nazaridan tadqiq etishga undadi.

«Ma'naviyat - deydi I.A.Karimov, - insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch -qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt - saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix, balki yangi tarix ham buning ko'plab misollarini beradi.»¹ Shuning uchun ma'naviyat milliy taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biridir, hatto aytishimiz kerakki, jamiyat orzu qilayotgan «buyuk islohotlar mag'zidir.» Ma'naviyatga «ijtimoiy ong, dunyoqarash, e'tiqod, din, diniy amaliyot, milliy g'oya, milliy mafkura ham, insonning xush fe'li, odobi, fazilatlari ham, ijodiy -

¹ Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари. —Т.: Ўзбекистон, 1998. — 62 б.

izlanishlari va bu borada erishgan yutuqlari ham, jamiyatning asrlar osha kelayotgan asori atiqalari va madaniy merosi, urf-odatlari ham, zamondoshlarimizning keljak haqidagi tasavvurlari - yu, ijodiy ma'nodagi orzu - havaslari va rejalarini ham kiradi.

Ma'naviyat insonning, umuman kishilik jamiyatining mazmun -mohiyatini tashkil etuvchi uzviy belgisi, xossasidir».¹ Ushbu murakkab va shaxs hamda jamiyat hayotining barcha tomonlarini qamrab oluvchi universal tushunchani M. Imom-nazarov soddalashtirish niyatida unga «ilohiy nur»² deb ta'rif beradi. Ushbu ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, ma'naviyatning eng muhim qismlaridan biri tarixiy - madaniy meros, ajdodlarimizdan bizga etib kelgan osori atiqalar, an'analar, urf - odatlari, diniy marosimlar va bayramlar, xalq tomoshalari, xullas, etnomadaniyatdir.

Ma'naviyat bilan etnomadaniyat o'rtasidagi farq shundaki, ma'naviyat an'anaviy, milliy bo'limgan qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Etnomadaniyat esa o'zbek xalqining milliy xususiyatlarini ifoda etadigan vogelikdir. Ma'naviyat sub'ektiv xarakterdagi tushuncha, u ko'pincha axloqiy sifatlarni, munosabatlarni o'z ichiga oladi, etnomadaniyat esa millatimiz hayotidan muhim o'rin olgan, tarixiy - madaniy qadriyatlarga aylangan boyliklardan iborat. Ma'naviyatga zamonaviy munosabatlar ham kirgani uchun u tez transformatsiyaga uchraydi, etnomadaniyatga esa o'z o'zagini asrash, hatto konservativlik xos. U yangi, zamonaviy o'zgarishlarga, modernizatsiyaga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi, davr va hayot sinovidan o'tgan qadriyatlarnigina ininnovatsiya sifatida qabul qiladi. Xullas, etnomadaniyat milliy ma'naviyatning o'zagidir.

O'zbek ayollar ma'naviyatining o'zbek xalqi etnomadaniyati bilan bog'liq, uyg'un jihatlarini an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarni orqali qarash mumkin. Ushbu qadriyatlarning bir - biriga dialektik bog'liqligi o'zbek ayollarining dunyoda kechayotgan o'zgarishlarga, jamiyatni modernizatsiyalashga faol munosabatda bo'layotganini, ularning ijtimoiy taraqqiyotni dinamik vogelik

¹ Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. —Т.: Маънавият, 2002. — 24 б.

² Йомонзаров М. Миллий маънавиятимиз такомил босқичлари. —Т.: Шарқ, 1996. — 6 б.

tarzida qarab, ushbu taraqqiyot inson ongi, ijodiy faoliyati, madaniyatiga bog‘liqligini to‘g‘ri anglayotganini ifoda etadi. Ushbu qadriyatlar ham o‘zining badiiy estetik jihatlariga, ijodiy faoliyat sifatida yaratilishiga ko‘ra «nimada taqlid amalga oshiriladi, nimaga nisbatan taqlid amalga oshiriladi va yoki, kimga taqlid amalga oshiriladi»¹ kabi yo‘nalishlariga ega.

Aristotelning ushbu klassifikatsiyasiga muvofiq qadriyatlar «nimada» (harakatlar), «nimaga» (tovushlarga) va «kimga» yoki «nimaga» (tasvirlarga) taqlid tarzida keladi. Harakatlar raqs, u yoki bu harakatlar (masalan, totemlarga taqlid tarzida), tovushlar kuy, musiqa, tasvirlar so‘z, rang kabi vositalarda ifoda etiladi. Ushbu rang -barang «taqlidlar» qadriyatlarni inson tomonidan yaratiladigan sun’iy dunyo madaniyatga taalluqli voqelik ekanini ko‘rsatadi. Uning bosh sub’ekti — inson, uning «xatti - harakatlari, qilmishlaridir. Chunonchi, Esxil asarining qahramoni Prometey xarakteridagi ulug‘vorlik, jafokashlik uning buyuk qilmishi xudolar, qudratli hukmdorlar g‘azabidan qo‘rqmay, xalqqa olov keltirib berishi orqali namoyon bo‘ladi. Agar Prometeyning ushbu qilmishi bo‘lmasa, uning xarakteri qandayligini bilolmagan bo‘lardik.»²

O‘zbek ayollari etnomadaniyatidagi an’anaviylik yoki an’anaviy qadriyatlarning takomil bosqichlarini, M. Imomnazarov taklif etganidek:

I. Islomgacha milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti.

II. Islom mintaqa madaniyati takomilida milliy ma’naviyatimizning o’rni va mavqeyi (Ushbu ikki bosqichda an’anaviy qadriyatlar shakllangan, o‘zbek xalqi etnomadaniyati barqaror voqelikka aylangan.)

III. Yangi davr jahon madaniyati va milliy ma’naviyatimiz takomili masalalari»³ ga bo‘lib qarashimiz mumkin. (Ushbu bosqichda zamonaviy qadriyatlar o‘zbek etnomadaniyatidan o’rin olgan.)

Islomgacha bo‘lgan milliy ma’naviyatimiz taraqqiyotining eng qadimi davri haqida so‘z ketganda matriarxatga to’xtalmay iloj yo’q. Matriarxat davrida jamiyatda ayollar yetakchi o’rin egallaganlar. Ularning mavqeyi erkaklarnikidan

¹ Қаранг: История эстетики. Памятники эстетической мысли. Т. III. -М. Мысль, 1962. -С. 128.

² Аристотель. Поэтика (Поэзия санъати ҳақида). -Т.: F. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, -1980. -131 б.

³ Имомназаров М. Миллий ма’навиятимизнинг такомил босқичлари. — Т.: Шарқ, 1996. — 8 б.

yuqori bo'lib, urug‘ boshlig‘i ham ayol kishi bo‘lgan. «Matriarxat davrida, odatda, qiz o’ziga qayliq tanlagan. Lekin qiz o’z istagini hammaga bildirishi va tanlagan kuyovini barchaga tanishtirishi shart bo‘lgan. Ko’pincha ana shu tanishtiruv paytida yoki undan so’ng ziyofat berilgan. Bu holning odatga aylanishi keyinchalik to’y marosimining vujudga kelishiga turtki bo‘lgan.»¹ To’y marosimlarining ilk shakllari kelin - kuyovlarni sinab ko’rish an’anasi mavjudligi bilan e’tiborga molikdir. Matriarxat davrida kuyovlar turmushda lozim bo’ladigan ov qilish, o’tin yorish, olov yoqish, matonat bo’yicha sinab kurilgan. Bu davr oilaning vujudga kelishi bilan katta ahamiyatga ega, chunki ayol ,oila ,ma’naviyat mohiyatan uzviy bog‘ liq voqelikdir.

Matriarxat davrida yuzaga kelgan totemizm, animizm, fetishizm, magiya (sehrgarlik) qadimiylardan olamga, voqelikka bo‘lgan ilk tasavvurlaridir. Ularda o‘zbek etnomadaniyatiga va ayollarimiz ma’naviy olamiga xos tushunchalarni, hayot tarzini ko‘ramiz.

Totemizm («totem» «uning urug‘i» ma’nosini bildiradi) so‘zi «insonlar bilan ayrim hayvonlar, o’simliklarning qarindoshlik aloqalari bor», degan tasavvurni anglatadi. «Ana shunday hayvon yoki o’simliklardan biri urug‘ yoki qabila uchun totem, ya’ni muqaddas homiy deb qabul qilingan. Totemga keyinchalik: yomg‘ir, quyosh, oy, shamol, chaqmoq va hakozolar ham kiritilgan».² Totemizm urug‘chilik jamiyatining shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Bir totemga tegishli bo‘lish ta’sirida turli urf - odatlar, totem hayvonlarga bag‘ ishlangan maxsus bayramlar paydo bo‘ldi. Bu bayramlarda odamlar totem hayvon qiyofasiga kirib, raqsga tushishgan, ko‘ngilxushlik qilishgan. Ba’zan ayol totem vazifasini bajargan.³

Animizm («jon», «ruh» ma’nosini bildiradi) tabiat kuchlari (osmon, yer, quyosh, oy, yomg‘ ir, shamol)da, hayvonot, o’simlik va jonsiz jismlarda ham ruh, jon mavjudligiga ishonch, e’tiqoddir. Unda ruhlarga bag‘ ishlab o’tkaziladigan bir qator marosim va urf -odatlar mavjud. Ruhlardan madad so‘rash, ularga atab qurbanlik qilish, is chiqarish marosimlari shular jumlasidandir.

¹ Корабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. —Т.: Шарқ, 2002. — 20 б.

² Абдурахмонов А. Саодатга элтувчи билим. —Т.: Мовароуннахр, 2002. —229 б.

³ Қаранг: Токарев С. А. Ранние формы религии. -М.: Политиздат, 1990. -С. 554.

Fetishizmning («fetish» «sehrli narsa» degan ma’noni bildiradi) mohiyati jonsiz jism (tumor, but, sanam va hakozo) larga sig^c inishdir.

Hozir ham fetishizmning qoldiqlariga e’tiqod qiladigan ayollarimiz mavjud. Ular ko’zmunchoq, isiriq, tumor, qalampirmunchoq, ko’ztikan, qora murch kabi jonsiz jism va o’simliklarni balo -qazodan asrovchi, ko’z tegishidan saqlovchi, omad keltiruvchi timsollar sifatida muqaddaslashtirishadi.

Magiya (sehrgarlik) — biror maqsadga erishish uchun g‘ayrihayotiy kuchlar yordamida amalga oshiriladigan ish, xatti - harakat, urf - odat, duo.

Yaxshilik yo yomonlik yo’lida har xil amallar bajarish, marosimlar o’tkazish, issiq -sovuj qilish ba’zi ayollarimiz orasida hanuz uchrab turadi. Ular ma’lum bir ma’naviy boyliklar sifatida keyingi dinlarga ham utgan.

Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviyati yozuv paydo bo’lguniga qadar ertaklar, afsona va rivoyatlarda o’z ifodasini topgan. Ularda ajdodlarimiz, momo va buvilarimizning ma’naviy dunyosi, tafakkuri, hayot tarzi, orzu — istaklari aks etadi.

Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasi va afsonalarida vatanparvarlik, mardlik va jasorat asosiy fazilat sifatida tarannum etiladi. Yana bir o’ziga xos jihatni ayollar va erkaklar mavqeyining tengligidir. Haqiqatan ham «Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiylaridan eposida ayollar erkaklar bilan teng mavqeda bo’lganlar, hech bir sohada erkaklarga bo’sh kelmaganlar. Bu hol Markaziy Osiyo eposining o’ziga xos xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.»¹

Qadimda ayollarimiz o’zlarining jasoratlari, uddaburonliklari, shijoatlari bilan dong taratganlar. Sak xalqining malikalari Zarina, Sparetra, massagetlar qabilasining hukmroni To’maris kabi siymolarimiz mardlik va bahodirlik bobida ba’zi erkaklarni ortda qoldirganlar.

Sak malikasi Zarina o’z yurtini Midiya hukmronligidan ozod qilishga bel bog‘- lagan va bu yo’lda matonat bilan jang olib borgan vatanparvar jangchi, dono yo’lboshchi va otashin muhabbat sohibasidir.

¹ Жумабоев Й. Ўзбекистонда фалсафа ва ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан. —Т.: Ўқитувчи, «Зиё — ношири». 1997.— 10 б.

Sparetra jasur jangchi, vafodor va fidoyi umr yo'ldoshdir. Eron bosqinchilariga qarshi kurashda uning eri Amerg Kirga asir bo'ladi. Sparetra qo'shin to'plab, jangda Kirni mag' lub etib, erini ozod qiladi.

To'maris vatan ozodligi yo'lida kurashgan qat'iyatli va jasur hukmdor, matonatli ona. G'olima Musinaning yozishicha, o'tmishda ayollarimiz jamiyatda faol ishtirok etibgina qolmay, jasoratlari hukmdor ham bo'lganlar: «Davlat boshidagi hukmdor ayollar o'z jasoratlari bilan atrofdagi davlatlarga dahshat solib turar edilar»¹. To'maris boshchiligidagi shiddatli jangda Eron shohi Kirning o'ldirilishi Osiyodagina emas, balki butun Yevropada katta shov - shuvga sabab bo'ladi. Bu haqda Iskandar Maqduniy ham eshitgan edi. U O'rta Osiyoni bosib olganidan keyin, Amudaryo atrofida joylashgan ayollar hukmronligidagi mamlakatga hujum qilishga botina olmaydi.

Turkon xotun, Ray viloyatining hukmroni Sayida xotun kabi ajdodlarimizning jasorati, matonati, vatanparvarligi, xalqparvarligi, aql-zakovati o'sha davrdagi ayollarimizning ma'naviy olamidan darak beradi. Ba'zi Rus, Gruziya knyazlari ayollarimizning zakovati, jasorati va ma'naviyatiga qoyil qolib, ularga uylanishga yoki ularni o'z o'g' illariga kelin qilishga harakat qilganlar. «Masalan, Kiev knyazi Oleg To'g'roxonning qiziga uylanadi. Ularning o'g' li Igor va Vsevolodlarda ham qipchoq xalqining qoni bor edi. Igoring o'g'li Vladimir ham Ortiqxonning nevarasiga uylanadi. Ortiqxon yana bitta qizi Po'rondoxtni Gruziya knyazi Dovud IV ga kuyovga beradi.»² Demak, o'sha davrlarda ot chopishda, qilichbozlikda, yoy otishda, merganlikda uta mohir bo'lgan ajdodlarimiz orasidan buyuk hukmdorlar, oqila maslahatguylar, zabardast olimalar, yetuk shoiralar yetishib chiqqan.

U.H.Qoraboevning yozishicha, zardushtiylid Osmon, Quyosh, Yer va tabiiy hodisalarga bog' liq an'analar: o'simliklar dunyosi va hayvonot olamiga oid qadimi yudumlar; inson hayoti bilan bog' liq odatlar; ozodalik, poklanish odatlari; motam marosimlari keng tarqalgan.³ Qavm — qabilalar orasida «lagamzodan»

¹ Фолима Мусина. Туруннинг алп кизлари. —Т.: Ёзувчи, 1997. —15 б.

² Ўша жойда. —17 б.

³ Қаранг: Қорабоев У.Х. Ўзбек халқи байрамлари. —Т.: Шарқ, 2002. —31—32 б.

(otga suvliq solish), «zin zaran» (otni egarlash), «kamarbastan» odatiga qat’iy amal qilingan. Masalan, chorvachilik bilan shug‘ ullanuvchi qavmlarda qizlarga yungdan ip yigirish, urchuq va charxda ishlash, matolar to‘qish, liboslar tikish o‘rgatilgan.¹

Demak, zardushtiylar odatlari va marosimlari mutlaq transsensual emas, balki real hayot ehtiyojlari, kishilarda, ayniqsa yoshlarda ijtimoiy zarur ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bog‘ liq.

Qurg‘oqchilikda yomg‘ir tilangan «Sust xotin», shamolga bag‘ishlangan «Choy momo» kabi maxsus marosimlar o‘tkazilgan, ularning asosiy ishtirokchilari ayollar bo‘lgan. Zardushtiylikda kuz faslida o‘tkaziladigan «Oni bug‘doy», «Xirmon to‘yi» va «Mehrjon» bayramlari keng tarqalgan. Ular kuzgi kun — tun tengligiga va o‘rim — yig‘ im tugaganiga bag‘ ishlab o‘tkazilgan. Ayollarning marosim va bayramlarda erkaklar bilan birga ishtirok etishi an’ana edi. Hatto ayollar ba’zi marosimlarga boshchilik qilgan.² Yurtimizda islom dini o‘matilgach, ayollar ma’naviyati ham transformatsiyaga uchradi. Marosimlar va bayramlarda ayollar va erkaklar alohida ishtirok etadigan bo‘ldilar. Ayollarning maxsus marosimlari, dam olish tadbirdari - an’anaviy qadriyatları vujudga keldi. Turli ziyyaratgohlarga borib hordiq chiqarish ana shunday qadriyatlardan biridir.

«Ziyorat — (arabchada) biror joyga borish degan ma’noni berib, u islom bilan qo‘shilgach, diniy tusga kirdi.»³ Demak, ziyyarat — biror -bir muqaddas joyga, aziz avliyolarning qabrlariga borib, ularning ruhi poklariga duo-yu fotiha qilib kelishdir. Lekin, «ziyyarat» deganda faqat diniy ma’no ko‘zda tutilmaydi. Xalqimizda ota -onani, bemorlarni, keksalarni, ustozlarni ziyyarat qilib turish an’anaviy qadriyat hisoblanadi.

O‘zbek ayollarida ziyyarat bilan bog‘liq odatlar ko‘plab uchraydi. Ayollarimiz yo yakka tartibda yoki uyushgan holda ziyyaratgohlarga boradi. Respublikamizda ziyyaratgohlar juda ko‘p. Ular madaniy - ma’naviy ozuqa olish dargohi bo‘libgina

¹ Карап: Ашурев А. «Авесто»дан мерос маросимлар. — Т.: 2001. — 6 б.

² Карап: Ўша жойда. — 11 — 13 б.

³ Махмуд Саттор. Ўзбек удумлари. — Т.: Фан, 1993. — 185 б.

qolmay, shu bilan birga dam olish, hordiq chiqarish maskani hamdir. Bu o'rinda ibratli bir misol keltiramiz.¹

2.2. Diniy qadriyatlar va ularning o'zbek ayollari ma'naviyatidagi o'rni

O'zbekiston xotin-qizlari barcha sohada o'zlarining halol va fidokorona mehnatlari bilan ishtirok etmoqdalar. Bugungi kunda xotin-qizlar faol mehnat resurslarining 47,1% ini tashkil qiladi.

Respublikada oliy va o'rta maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislarning har ikkinchisi xotin-qizlardir.

Xotin-qizlar zimmalariga yuklatilgan ijtimoiy vazifalar moxiyatiga ko'ra muayyan jamiyat xayotida muxim o'ringa egadirlar. Insoniyat tarixiy tajribasidan bizga yaxshi ma'lumki, ma'lum zamon va makonlarda xotin - qizlarning ijtimoiy mavqeyi, maqomini e'tirof etishga nisbatan turlicha yondoshuvlar bo'lgan. Mana shunday yondoshuvlarning biri tufayli xotin - qizlar qabila, urug' yoki oila xayotini tashkil etishda yetakchi vazifalarni bajarganlar. Ushbu xolat matriarxal davrida yaqqol namoyon bo'lgan. Biroq barcha davrlarda xam xotin - qizlarning jamiyatidagi ijtimoiy mavqeyi yuqori darajaga ko'tarilmagan. Bu xol o'rta asrlarda xukmron bo'lgan diniy qarashlar xamda ularda ilgari surilgan g'oyalarga asosan yuz bergen. Davrlar o'tishi bilan taraqqiyparvar, ziyoli kishilarning sa'y - xarakatlari natijasida xotin - qizlar jamiyatda muayyan mavqega ega bo'lish, shaxs sifatida ma'lum haq-huquqlarga erishish, o'zlarining harakatlariga bog'liq ekanliklarini tushunib yetdilar.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy - siyosiy mustaqilligi sharoitida aholining yarmidan ziyodini tashkil etadigan ayollarning erkaklar bilan teng xuquqlari Respublikamiz Konstitutsiyasida ta'kidlab berilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1995-yil 2-martda "O'zbekiston Respublikasi davlat va jamiyat qurilishida xotin - qizlar rolini oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Farmoni fikrimiz asosidir². Ya'ni, farmonga asosan xotin-qizlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy masalalarni yechish

¹ Диний қадриятларнинг аёллар маънавиятидаги урни келгуси мавзуда маҳсус тадқиқ этилади.

² Гуломова Д. "Ўзбекистон хотин-кизлари мустақиллик йилларида" 2000йил. Даврий тўплам. №3.

ishlariga kengroq jalg qilish, davlat va jamiyat boshqaruvarlarda kengroq ishtirokini ta'minlash maqsadida Vazirlar Maxkamasining Bosh vazir o'rribbosari lavozimiga, viloyat hokimliklarining barcha tizimlarida xokim o'rribbosari lavozimiga xotin-qizlar tayinlandi.

Zero, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi mavjud ijtimoiy muammo va kamchiliklarning kelib chiqishini oldini oluvchi, ularning ijobiy yechimga ega bo'lishini ta'minlovchi muxim omillardan biridir. Chunki faollik - bu kishining eng muxim xislatlar, talablari, qarashlari maqsadlari asosida unga mos holda vogelikni o'zgartirish qobiliyati deb qaraladi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, muayyan jamiyatda xotin-qizlar ijtimoiy faolligi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki doimiy ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasi sifatida ko'zga tashlanadi. Xotin-qizlar ijtiimoiy faolligini yuzaga keltirish uning sifatini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat ko'p qirrali, murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- 1) xotin-qizlar o'rtasida ularning ijtimoiy faolliklari mavjudligining psixologik va pedagogik axamiyatini ko'rsatib berishga yo'naltirilgan tushuntirish (targ'ibot-tashviqot) ishlarini olib borish;
- 2) xotin-qizlarni ular ijtimoiy faolliklarini oshirishga nisbatan extiyojini yuza keltirish;
- 3) xotin-qizlarda ijtimoiy jixatdan faol bo'lish xususiyatlarini kamol toptirish, takomillashuviga intilish, rag'batni qaror toptirish;
- 4) xotin-qizlarda ijtimoiy jixatdan faol bo'lish imkonini beruvchi axloqiy-irodaviy, tafakkur sifatlar (xarakatchanlik, shijoat, g'ayrat, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z qobiliyati ustida ishslash, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik va xokazo)ni shakllantirish;
- 5) xotin-qizlar ijtimoiy faolligani yuzaga kelishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratiish;
- 6) xotin-qizlar tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy faollikning jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga erishish;
- 7) xotin-qizlarda ijtimoiy faollik ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligani oshirish bir qator ob'ektiv xamda sub'ektiv omillar mavjudligini taqozo etadi: jamiyat miqyosida xotin - qizlar muammolarini xal etish masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi; xotin- qizlar ijtimoiy faolligining omma tomonidan qo'llab - quvvatlanishi; xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida oila, ta'lim muassasalari, maxalla, davlat va jamiyat xamkorligidan foydalanish; xotin- qizlarning ijtimoiy faollik moxiyati va axamiyatni to'g'ri anglashlari; xotin - qizlar tomonidan ijtimoiy jihatdan faol bo'lishga nisbatan rag'bat bildirilishi; xotin-qizlarda shaxsiy xamda ijtimoiy manfaatlar uyg'unligiga asoslangan faoliyat ko'nikma va malakalarning shakllanganligi va xokazolar.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyat va ma'no mazmuni xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur pedagogik faoliyatni mazmun va ko'lam jihatidan boyitish, uni rang-barang bo'lishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida ishtirok etuvchi sub'ektlar - O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi, ushbu qo'mitaning viloyat, shahar, tuman hamda mahalliy bo'limlari, "Tadbirkor ayol" va "Lider ayollar" uyushmalari, "Oila" ilmiy-amaliy Markazi, "Sog'lom avlod" nodavlat xayriya jamg'armasi, "Ona va bola" skrining markazlari, Respublika "Kamolot" ijtimoiy xarakatining joylardagi bo'limlarining faoliyat mazmuni bevosita xotin - qizlar ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyat mazmunini belgilab beradi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan sub'ektlar tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan turli mavzularda uchrashuv, davra suhbat, konferensiya, seminar, bahs-munozara, ko'rik (tanlov), ma'ruza kabi tadbirlar xotin-qizlarning ijtimoiy tafakkuri va dunyoqarashini boyitish bilan birga ularda ijtimoiy mazmunga ega faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni xam hosil qiladi.

Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishda ta'lim muassasalarining alohida o'rni bor. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasbxunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o'quv yurtlarining ijtimoiy xayotidagi ishtiroki ta'lim oluvchi qizlarda ijtimoiy faollik sifatlarini tarbiyalaydi. Shu bois, turli yo'nalish va bosqichlarda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi

o‘quv va tarbiya ishlar jarayoniga ta’lim oluvchi qizlarni jalg etish (o‘z-o‘zini boshqarsh organlari, ijodiy guruxlar tarkibida) maqsadga muvofiqadir. Ta’lim oluvchi qizlar zimmasiga ijtimoiy vazifalarni yuklash, ularning bajarilsh yuzasidan doimiy xisobot berib borishni talab etish, mavjud muammolarni ijobiy hal etilishi borasida muayyan chora-tadbirlarni ko‘rish uchun ma’lum vaqtning belgilanishi ularda ijtimoiy vazifa yoki burchni bajarish bo‘yicha ma’suliyatni xis etish tuyg‘usi shakllantiradi. Shuningdek, mustaqil fikrlash o‘z nuqtai nazarini ximoya qilish kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Demak, yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkin:

1. Ijtimoiy jamiyatda xotin -qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharoitida dolzarb muammo hisoblanadi.

2. Xotin -qizlar ijtimoiy faolligini oshirish mazkur maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat ma’no mazmuni hamda uning samaradorligiga bog‘liq.

3.Xotin -qizlar ijtimoiy faolligini oshirishning dastlabki bosqichi ta’lim muassasalarida amalga oshirilib, ta’limiy va tarbiyaviy ishlar jarayonining tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Zero, mazkur davrda ta’lim oluvchi qizlarning ijtimoiy tafakkuri va dunyoqarashining boyib borishi, ularda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllanishi va kamol topishi uchun qulay shart-sharoit mavjud.

Ya’ni, yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan ayollar o‘zlarining shaxsiy maqomlariga ega bo‘lib, jamiyatni ajralmas qismi ekanligini ta’kidlamoqchimiz. Ayollar faolligining tarbiyaviy mohiyati esa, ularning jamiyatimiz ma’naviy taraqqiyotida, ijtimoiy hayotda, oilada namoyon bo‘ladigan ijobiy natijalarga bog‘liqdir.

Ijtimoiy faollikning negizini insonning siyosiy-huquqiy madaniyati tashkil etadi. Faoliyat qanday maqsad, qanday mexanizmlarga tayanishini yaxshi anglamay, bilmay turib, jamiyat hayotini tashkil etish va boshqarishda qatnashib bo‘lmaydi. Shuning uchun maxsus adabiyotlarda "Siyosiy madaniyat, davlat,jamiyat - shaxs munosabatlari o‘rtasida rioya etiladigan me’yorlar, qadriyatlar, ko‘rsatmalar sifatida jamiyatning siyosiy idealini, tajribasini va boshqarishga oid faoliyatlarini ifoda qiladigan voqelikdir", deb ta’rif beriladi.

Tadqiqotchilar fikricha, O'zbekistonda shakllangan siyosiy madaniyatning quyidagi umumiy xususiyatlari mavjud:

- alohida olingan shaxs manfaatlarining davlat va jamiyat an'analariga hamohangligi;
- ijtimoiy muammolar yechimida davlat va jamiyatning hal qiluvchi ahamiyatga molik roli e'tirof etilishi;
- hokimiyatga hurmat bilan munosabatda bo'lish an'anasining mavjudligi, rahbarlarning ma'naviy qiyofasini aniqlashdagi yuksak talablar;
- parlament va boshqa vakillik organlarining ijtimoiy hayotdagi roliga e'tiborning mavjudligi;
- deyarli barcha siyosiy partiylar vakillariga xos bo'lgan xislat - o'z g'oya va tamoyillarining to'g'rilingiga qat'iy ishonch¹.

Huquqiy madaniyat ijtimoiy hayotda amal qilinadigan rasmiy va norasmiy normalarga rioya etish darajasini ifoda etadigan tushuncha bo'lib, jamiyatda qaror topgan huquqiy tizim, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilishi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik kabilarni anglatadi.

Yuqoridaagi ta'riflarni birlashtirib, siyosiy-huquqiy madaniyatni shaxs, davlat, jamiyat o'rtasidagi siyosiy maqsad va sinfiy manfaatlarni amalga oshirish jarayonida rioya etiladigan normalar, xulq-atvorning ifodasiadir, deb atasak bo'ladi.

Siyosiy-huquqiy madaniyat jamiyatning barcha a'zolariga bab-baravar taalluqli bo'lib, ayollarning ijtimoiy faolligi ham siyosiy-huquqiy madaniyatning umumiy qoidalariга rioya etadi. Ayollarning ijtimoiy faoliyatini va bu muammoga bag'ishlangan ilmiy-metodik adabiyotlar, tavsiyalarni o'rganib, ayollar siyosiy-huquqiy faoliyatidagi o'ziga xosliklarni quyidagilarga ajratish mumkin.

¹ Fafforova M. Хотин-қизларнинг ижтимоийлашуви. ”. //Жамият ва бошқарув. 2008 йил. №2. Б-90-91

1. Ayollarning ijtimoiy faolligi umumiy ijtimoiy faollikning bo'sh vaqt, ixtiyorilik, ommaviylik, oqilonalik, uyushtirilganlik kabi belgilarini ifodalaydi.

2. Ayollarning ijtimoiy faolligi xususiy va umumiy manfaatlarni har doim uyg'unlashtirib borishni taqozo etadi.

3. Mas'uldar sub'ektning yo'l-yo'riqlariga, tashkilotchiligiga tayanadi.

4. Ijtimoiy vazifani to'la ado etish kafolati kam bo'ladi.

5. Ijtimoiy vazifani ko'proq verbal usullar bilan hal etishga moyillik kuchli bo'ladi.¹

Ijtimoiy faollik — mohiyatiga ko'ra, kishilarning bo'sh vaqtlarida kechadigan ixtiyoriy, ommaviy xatti-harakatidir. U fuqarolik jamiyatida nodavlat tashkilotlari va o'zini-o'zi boshqarish organlari kishilarning ijtimoiy faolligini uyushtirish institutlari hisoblanadi. Aynan ularning tashkilotchilik faoliyatida kishilarning siyosiy-huquqiy faoliyati mujassamlashadi.

1997-yili "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning milliy dasturi" qabul qilingach, fuqarolik institutlarining faoliyatida siyosiy-huquqiy tadbirlar, vazifalar asosiy o'rinni oldi. Inson huquqlari milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qoshida Ombudsman, O'zbekiston advokatlar Assotsiatsiyasi, "Gender va taraqqiyot" byurosi, "Ayol va jamiyat" instituti, "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Ular ayollarning siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan turli tadbirlarni rejalashtirdi.

Ayol va erkak munosabatlarida segregatsiya va konvergensiya jarayonlari mavjud, ular goh bir-biridan uzoqlashishga, goh yaqinlashishga moyildirlar. Chet ellarda o'tkazilgan tadqiqotlar (E.Syullero, B.Bon-ta, J.Adams, E.Suy va B.Guchek, J.Landau, S.Marlou, T.Melamad, G.Shtayns va b.)ning natijalariga ko'ra, ayollar erkaklar bajaradigan ijtimoiy-siyosiy vazifalarni bemalol uddalay oladi, ammo ular ko'pincha o'rta pog'onadagi boshqarish ishlariga moyildir. Aniq vazifalarni (texnikaga oid ishlar, tashkil qilish, murakkab, ayniqsa, ziddiyatli muammolarni hal etishni va b.) bajarishda erkaklar ajralib turadi, ular og'ir va murakkab vazifalarni aniq bajarishga intiladi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdan

¹ Жабборова Д. Аёлларнинг хукукий маданияти. // Жамият ва бошқарув. 2009. № 2 Б. 112-113.

qo‘rqlaydi. Ayollarning ushbu pog‘onadagi faolligi yuqori emas, ammo ular o‘rtalarda pog‘onada (odamlar bilan og‘zaki (verbal) usullarda ishlashga mo‘ljallangan lavozimlar - bo‘lim mudiri, ijtimoiy xodim, meditsina xodimi, o‘qituvchi va b.) faollik ko‘rsatadilar. Ijtimoiy faoliyatning yuqori pog‘onasi mudom fidoyilikni, shaxsiy qiziqish va manfaatlarni unutishni taqozo etadi. Ushbu pog‘onada boshqalar, jamiyat yoki davlat extiyojlari bilan yashash, hatto butun umri, vaqtin, kuchini yuqori pog‘ona manfaatlariga baxsh etish odatiy holga aylangan. Vazifaning murakkabligi, yuki, mas’ullik darajasining yuqoriligi ko‘p vaqt kuchni, hatto dadillikni talab qiladi. Afsuski, ayollarda ushbu vazifaning talablariga chidash yuqori emas. Ushbu pog‘onaga ko‘tarilgan ayollarda esa oila to‘liq emasligi, farzandlar 1-2 nafar ekanligi kuzatiladi. Ko‘pincha bunday ayollarda yumshoqlik dag‘allik bilan, yon bosish cho‘rtkesarlik va o‘jarlik bilan, tinglash, eshitish rasmiyatçilik, vaqtini tejash xususiyatlari bilan almashadi. Ularning xatgiharakatlarida erkaklarga xos sovuqqonlik, hukm chiqarishga, o‘z so‘zini o‘tkazishga intilish, suhbatdoshining qiziqishlarini e’tiborga olmaslik kabi belgilar ko‘zga tashlana boshlaydi.

Ayollarda hayotiy muammolar, ixtiyoriy ijtimoiy vazifalarni verbal (og‘zaki) usullar bilan bajarishga moyillik kuchli. Biror vazifani bajarishdan oldin uning rejasi tuziladigan va muhokama qilinadigan bo‘lsa, ayollar ushbu vazifani muhokama qilishga vaqtini sarflashdan qaytmaydi. Buni biz ayollarni tanqid qilish uchun emas, balki ularning ruhiy xususiyatlari, intilishlarini hisobga olgan holda aytayapmiz. Xalq ta’limi, maorif va madaniy-ma’rifiy sohalarda ayollar 80 foizni, ba’zi viloyatlarda esa undan ham ko‘jni tashkil etadi. Ushbu sohalarda asosan verbal usullardan foydalilaniladi¹.

Ijtimoiy ixtiyoriy faoliyat ham huquqiy bilimlardan yaxshi xabardor bo‘lishni talab etadi. Faollik har doim ham, hamma tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan xatti-harakat emas. Uni qo‘llab-quvvatlovchilardan ko‘ra, unga to‘siq qo‘yuvchilar, goho esa befarq munosabatda bo‘luvchilar ko‘p. Faqat huquqidan yaxshi xabardor, siyosiy faollik ko‘rsatishni hayot tarziga aylantirgan

¹ Ийманова Д. Хотин-кизларнинг жамият тараккиётидаги ўрни. // Жамият ва бошқарув. 2009. №1. Б-115-116.

kishigina ijtimoiy faollik ko‘rsata oladi. Siyosiy-huquqiy bilim siyosiy-huquqiy faollik bilan uyg’unlashtirilganidagina inson o‘zini jamiyat va davlat ishlarini boshqarish imkoniga ega sub’ekt ekanini sezadi. Kadrlarni tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda ayol kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash maxsus kichik dasturini ham nazarda tutish, unda homiladorlik ta’tili va bola parvarishlash ta’tilidan keyin ishga chiqqan ayollarning kasbiy bilimini jadal tiklash masalalarini ham ko‘rsatish lozim.

Hududlardaga idoralar joylarda ayollardan iborat aholi uchun ishchi o‘rinlari ixtisoslashtirilgan ko‘rgazmalarini o‘tkazish tajribasini kengaytirishi zarur. Vanihoyat, O‘zbekiston Respublikasining yangi Mehnat kodeksida beriladigan jamoa shartnomalari va bitimlari yordamida ayollarning ish bilan bandligi (ta’milanishi) kafolatidan foydalanish kerak. Masalan, kasaba uyushmalari bilan ish beruvchilar o‘rtasida ayollarni ishdan bo‘shatishga qarshi ularni himoyalash to‘g‘risida maxsus shartnomalar tuzish ayollarning bandligi muammosini hal qilishning muhim vositalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bunday amaliyot ko‘pgina mamlakatlarda qo‘llanmoqda.

Ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosat yo‘nalishlari ichida bolali oilalarga davlat tomonidan yordam ko‘rsatilishi muhim ahamiyat kasb etadi. U uch xil nafaqani o‘z ichiga oladi:

1. homiladorlik va tug’ruq bo‘yicha nafaqalar, shuningdek bola tug’ilganida bir marta beriladigan nafaqa;
2. bola ikki yoshga to‘lgunicha har oyda beriladigan nafaqa;
3. bola 16 yoshga to‘lgunicha har oyda beriladigan nafaqa;¹

Bolalar uchun beriladigan nafaqalarini moliyalash davlat byudjeti mablag’lari hisobidan, shuningdek, mulkchilik, shakllaridan qat’iy nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarning mablag’lari hisobidan ham amalga oshiriladi.

1997-yil yanvar oyidan boshlab bolalar nafaqalarini to‘lashning yangi tizimi amalga kiritilgan bo‘lib, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishga (ta’milanishga)

¹ Убайдуллаева Р. “фаол ишловчи шахс” //Ижтимоий фикр инсон хукуклари. 1999 йил. №1-2. Б-118-123.

muhtoj bo‘lgan bolali oilalarni fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari - mahallalar orqali aniqlanishini ko‘zda tutadi. Bu tartib maxsus yordamning zarur bo‘lgan joyga berilishini ta’minlashga imkon beradi, ya’ni umumiy - hammaga bir xil beriladigan yordamdan aniq hisobga olinadigan mezonlar (zarurat darajasi, oilada bolalar soni va boshq.) asosida qat’iy farqlangan holda mablag‘lar ajratishni ko‘zda tutadi.

Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam va bolali oilalarga nafaqalar shaklida beriladigan bevosita transfertlar ularni qo‘srimcha daromadlar bilan ta’minlaydi. Onalik va bolalikni muhofazalash maxsus dasturini amalga oshirayotgan "Sog‘lom avlod uchun" fondi orqali ona-ayol va bolalar tarbiyachisiga katta yordam ko‘rsatilmoqda, bunday yordam viloyat, shahar, tuman va qishloqlarda ham berilmoqda.

O‘zbekistonda 15 mln. ga yaqin xotin-qizlar yashaydi, bu - respublika umumiy aholisining 51 foizini tashkil etadi.

Ayollar ishchi kuchining asosiy qismi qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida joylashgan (ular bu sohada band bo‘lganlarning deyarli yarmini tashkil etadi). Shu munosabat bilan O‘zbekistonda bandlik muammolari ichida qishloq joylarda faoliyatning qishloq xo‘jalik va noqishloq xo‘jalik ishlab chiqarish turlari, ayniqsa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohalariga joylashtirish asosida ayollar mehnatidan oqilona foydalanishni ta’minlash ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Bu yo‘nalishda qishloq joylarda mehnat bozorida ayol ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifni hisobga olgan holda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dasturini hayotga tatbiq etish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda ishlayotgan ayollarning ko‘pchilik qismi - 60-70 foizigacha noishlab chiqarish sohasidagi tarmoqlarda, asosan maorif , sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’midot, savdo xizmati ko‘rsatishda band.

Bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida ayollar bandligida bo‘layotgan asosiy o‘zgarishlar mulkchilik shakllari bo‘yicha taqsimlanish bilan bog‘liq. Tarixiy jihatdan nisbatan kichik davrda ayollarning nodavlat sho‘basida bandligi o‘sib

borishi aniq ma'lumotlarga ko'ra qayd etildi. Bu sho'bada ayollarning 60 foizdan ortig'i ishlamoqda.

Shu munosabat bilan qayd etish lozimki, hozirgi dunyoda jinslarning tengligini egalitar talqin qilish inson kamol topishi uchun, uning qaysi jinsga mansubligidan qat'iy nazar, teng imkoniyatlar va ijtimoiy shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Davlat va jamiyat ikkala jins vakillariga munosabat borasida tarkib topgan qarashlarni yengish bo'yicha rejali va doimiy ish olib borishi zarur, zero emansipatsiya - ayollar uchun ham, erkaklar uchun ham hayot yo'lini tanlashda huquqlar berish ikki tomonlama jarayondir.

Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasida davlat siyosati quyidagi yo'nalishlar asosida olib borilmoqda:

- 1) sifat xususiyatlarini oshirishni hisobga olgan holda yangi ish joylarini yaratish asosida mehnatni qo'llash sohalarini har tomonlama kengaytirish;
- 2) ayollar uchun uy bekasi, ona va bolalar tarbiyachisi sifatida zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlash, bunda ijtimoiy himoya mexanizmlari orqali davlat tomonidan yordam ko'rsatilishi;
- 3) qiziqishlar sohasida tanlov huquqini berish va ijtimoiy mehnat bilan oilaviy vazifalarni uyg'unlashtirishga yordam beradigan chora-tadbirlar qabul qilish.

Eng dolzarb masalalardan biri ayol ishchi kuchining raqobatbardoshligini kuchaytirishdir. O'zbekistonning ayollardan iborat aholisi uchun yuqori ma'lumot darajasi xosdir: oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislar umumiyligi sonida 50 foizdan ortig'i ayollardir.

Shu bilan birga, bozor qayta qurishlari va malakali kadrlarga bo'lgan talab ehtiyoj o'sgan shart-sharoitlarda, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirishni o'stirish va yangi tarmoqlar vujudga keltirilishini hisobga olgan holda, ayollarni kasbiy o'qitish va qayta o'qitishni tashkil etish alohida e'tiborni talab qiladi. 1997 - 2000 - 2005 va undan keyingi yillarga mo'ljallangan kadrlarni tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish ko'p darajada bunga yordam beradi. O'zbekiston birinchi prezidenti I.Karimov o'zining Oliy Majlis to'qqizinchisi sessiyasida (1997 yil 29-30 avgustda) qilgan ma'rzasida qayd etganidek,

"Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu-niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqlol amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri bularning hammasi, avvalambor zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz".¹

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston uchun o'zining taraqqiyot yo'lini belgilab olish o'ta ma'suliyatli hamda murakkab vazifa edi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yangilamay, kishilarining mehnatga bo'lgan qarashini o'zgartirmay, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish mumkin emasligini birinchi Prezidentimiz I.Karimov to'g'ri ko'rsatgan. "Biz tanlab olgan yo'l, -degan I.A.Karimov, -ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir. Bu yo'l jahon tajribasini, shuningdek, xalqimizning turmush sharoitini, an'analarini, urf-odatlarini, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishiga asoslangandir."²

Bozor iqtisodiyoti bilan fuqarolik jamiyati o'zaro dialektik bog'liq, bir-birini to'ldirib va taqozo etib keladigan fenomenlardir."Erkin bozor bu- imkoniyatlar tengligi tizimidir."³ Fuqarolik jamiyati esa shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan, kafolatlaydigan ijtimoiy makondir. Demak shaxs erkinligi va huquqlari ular e'zozlaydigan qadriyatlardir.

Bozor iqtisodiyoti ayollarga o'zining iqtisodiy demokratik huquqlarini ro'yobga chiqarishga, sotsium hayotida o'zining faol ijtimoiy foydali mehnati bilan qatnashishga imkon yaratdi. To'g'ri, ushbu imkoniyatlardan foydalanish turli bosqichlarda turlicha kechgan. Masalan, O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ishtiroki 1992-yili 46,5 foizni, 1997-yili 42,2 foizni, 1999-yili esa 42 foizni tashkil etgan. 1992-1999- yillar ichida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy xayotdagi ishtiroki 4,5 foizga qisqargan. "Bu hol (ya'ni kamayishi-N,A,)

¹ И.Каримов. "Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори" Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис IX сессиясида сўзлаган нутки. "Халқ сўзи", 1997 й. 30 август 1-б

² Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.3-т.-Т.: "Ўзбекистон", 1996. -1766.

³ Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши.-Т.: "Шарқ",2003.-676.

yana davom etishi mumkin edi, chunki ma’naviy, diniy, oilaviy va boshqa sabablar bois xotin-qizlarning mehnat qilish, ijtimoiy hayotda qatnashish huquqini chegaralash holatlari ko‘paya boshladi. Buni o‘z vaqtida ilg‘agan Respublikamiz hukumati xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rdi.”¹ Natijada bugun xotin-qizlar kichik va o‘rta biznes sub’ektlari ichida 12,5 foizni, fermer xo‘jaliklari ishchi –xizmatchilarining 67-70 foizini, tadbirkorlar ichida esa 80foizni tashkil etmoqda.²

O‘zbekiston Respublikasida ayollar aholining 51foizdan ziyodini tashkil etadi. Bu juda katta ijtimoiy-iqtisodiy potensialdir. Ushbu potensialdan keng foydalanish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga, shuningdek erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Respublikamizdagi oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga jalb etish ayollar bandligini ta’minlashdan boshlanadi. Ko‘p bolali oilalar bugun 45-47 foizni tashkil etadi. Ushbu oilalardagi ayollarni tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlarni yaratish birinchidan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlaydi; ikkinchidan, aholining ish, mehnat bilan bandligi oshiriladi; uchinchidan, ayollarning hayotdan, o‘z turmush va faoliyatidan qoniqishiga, jamiyatning to‘laqonli baxtli, faol a’zosi sifatida yashashiga erishiladi. Chunki o‘z hayoti, turmushi va jamiyatdagi mavqeyidan qoniqmagan, o‘zini baxtli sezmaydigan ayolning barkamol avlodni shakllantirishga hissa qo‘shishi qiyin.

Ayollarni tadbirkorlikka jalb etish, ularni ishbilarmonlik asoslariga o‘rgatish, biznes sohasidagi bilimlarini mustahkamlashga ko‘maklashish, tadbirkor xotin-qizlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari barpo etish fuqarolik jamiyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim jihat – ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, qiziqishlari doirasida ish tashkil etishdan iborat.

¹ Нишонова Н.Р. Давлат бошқаруви тизимида хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллиги(фалсафий таҳлил).-Т.: “Фан”, 2013.159-160б.

² Ўша асар.-159 б.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishiqtisodiy siyosatidan kelib chiqadigan vazifadir.shu bilan birga ayollar tadbirkorligi bir qator to‘siqlarga ham duch kelayotgani aniqlangan. Maxsus tadqiqotlardan ma’lumki, “Biznes va tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga nimalar xalaqit bermoqda?” degan savolga ayollarning 80 foizi “Mablag‘ etishmaydi”, 72 foizi “Mahalliy hokimiyatdagilar to‘sqinlik qiladi”, 61 foizi “Muqim ishslashga imkon berishmaydi”, 43 foizi “Vaqtim yo‘q”, 29 foizi “Bilimim yetishmaydi”, 27 foizi “Tashkilotchilik, tadbirkorlik qobiliyatim yo‘q”, 12 foizi “Oilamdagilar qo‘llab-quvvatlamaydi” deb javob qaytargan.¹ Ko‘rinib turibdiki davlat va jamiyat ayollarning tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlaydi, ammo joylardagi e’tiborsizlik, oiladagi konservativ tasavvurlar, shu bilan birga, ayollarning o‘zida bilim, tashabbus va huquqiy savodxonlikning yetishmasligi asosiy to‘siqlar bo‘lib qolmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ayollarning ijtimoiy faollashuviga alohida e’tibor qaratildi. Shu o‘rinda tadbirkor ayollarning ijtimoiy faollashuvi bugungi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan holda ayollar tadbirkorligini yanada kuchaytirish quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- jamiyatda ayollarning tutgan o‘rni va ro’lini bugungi kun nuqtaiy nazaridan tahlil qilish;
- O‘zbekistonda mustaqillik yillarida shakllangan tadbirkorlik faoliyatini huquqiy negizlarini tahlil qilish;
- jamiyatda tadbirkor ayollar faoliyatiga doir qarashlar va yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish;
- O‘zbekistonda tadbirkor ayollar ijtimoiy faolligini kuchaytirish masalalarini o‘rganish;
- ayollar tadbirkorligining oila muhitiga ijobiy ta’sirini tahlil qilish;
- bozor munosabatlari sharoitida tadbirkor ayollar ijtimoiy faolligining jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini tahlil qilish;

¹ Нишонова Н.Р. Давлат бошқаруви тизимида хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллиги(фалсафий тахлил).-Т.: “Фан”, 2013. 163 б.

- Biz bilamizki fuqarolik jamiyatni har bir kishidan ijtimoiy faollikni talab etadi. O‘zining hayotiy pozitsiyasini, huquqlarini himoya qilish fuqaroni ijtimoiy faol sub’ektga aylantiradi. “Ishlashni istagan imkon ham, vosita ham topadi,” deb behuda aytishmagan. Bugungi kunda ayollar tadbirkorligini fuqarolik jamiyatining permanent qismi sifatida qarash va bu boradagi pozitiv tajribalarni maxsus o‘rganish, targ‘ib etish vaqtini keldi.

Demak, ayollar mehnati bozorini tartibga solish afzallikkari va chora-tadbirlari boshqaruv, ijtimoiy himoyalash, mehnatni tashkil qilish va moddiy rag‘batlantirish sohasida yalpi islohotlarga tayanishi kerak. Ular ayollardan iborat aholining alohida guruhlari va qatlamlarining o‘ziga xos xususiyatlari, milliy an‘analar va urfatlar, bozor talablarini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.

Shunday qilib, quyidagilarni qayd etish mumkin:

1) ayollar mehnati yangi, mustaqil O‘zbekiston-ni qurishda muhim hamiyatga ega, chunki ayollar respublika aholisining 50 foizini tashkil etadi va shundan xalq xo‘jaligida band bo‘lganlar 40foizdan oshadi;

2) nisbatan qisqa tarixiy davr mobaynida mustaqil O‘zbekistonda yangi huquqiy baza yaratilgan bo‘lib, u ayollarni kamsitish va iqtisodiy ekspluatatsiyadan himoya qilishga yo‘naltirilgan;

3) O‘zbekistonda davlat ayollarni ish o‘rinlari bilan ta’minlaydi, ularning daromadi o‘sishi, sog‘ligini mustahkamlanishi, qulay ish sharoitlari yaratib berish, ma’lumot olishi, ijtimoiy ta’minlanishi, ma’naviy ehtiyojlarining qondirilishi, oila farovonligini oshirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi;

4) ayollar mehnati masalalarining egalitar sohasi ayollarda ham, erkaklarda ham bunga munosabatda tarkib topgan qarashlarni o‘zgartirish bo‘yicha rejali va doimiy ish olib borish zarurligini taqozo etadi;

5) bozor qayta qurishlarining ayollar mehnatiga ta’sirini yumshatish (kamaytirish) uchun ayollaro‘rtasida o‘zini-o‘zi ish bilan band qilish va tadbirkorlik faoliyati tashabbuskorligiga yordamko‘rsatish; maxsus fondlar va banklar tuzish orqali ayollarni qo‘llab-quvvatlash chora - tadbirlarini ko‘rish; shuningdek ayollarni, ayniqsa uzoq vaqt homiladorlik va tug‘ruq ta’tillari, bola

parvarishlash ta'tilida bo'lganlarni o'qitish va qayta o'qitish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

Ilk diniy tasavvurlar insonning olamni idrok etishga intilishi natijasida paydo bo'lgan. Bepoyon koinot, tasodiflarga, sirlarga tula yon —atrof inson xayolini band etmasligi mumkin emas edi. Yirik ijtimoiy — tarixiy uzgarishlar esa jahon dinlarining yuzaga kelishiga turtki bo'lgan. Jahon dinlari, deb ko'rsatadi N.Komilov, «insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida yangi ma'naviy — ruhiy zarurat, fikriy va hissiy izlanishlar ehtiyojiga javob tariqasida paydo bo'lganligi sababli madaniy — ma'naviy hayotning hamma sohasini qamrab olib, ijodiy kutarilish, taxayyul va taassurotlar olami, aqliy va badiiy faoliyat tarziga ta'sir etib keldi.»¹ Islom ham ana shunday yirik ijtimoiy — tarixiy o'zgarishlar ta'sirida jahon diniga aylangan. Islom dini xalqimiz hayoti va etnomadaniyatida beqiyos o'rin tutadi. VII—XX asrlar ichida u xalqimizni ma'naviy — ruhiy birlashtirib, uni o'zining tarixiy — madaniy qadriyatlarini asrashga, tashqi tazyiqlarga jipslashgan holda qarshi turishga, xullas, xalq, millat sifatida o'zligini, etnomadaniyatini saqlab qolishga yordam berdi. Bundan tashqari din inson ruhidagi bokiralikka, ulug' likka va komillikka intilishni qo'llab — quvvatlaydi, uni yon — atrofga, boshqalarga ana shu sifatlar ko'zi bilan qarashga o'rgatadi. "Ayolda,— deb yozadi V.V. Razanov, —o'z ayolligini, tabiatga xos manguligini, "Men"ini aks ettirib turadigan bir sifat borki, jamiyat, ssivilizatsiya uni buzmasligi kerak."² Aynan dindagi ruhiy — ma'naviy qudratgina ushbu mangulikni bulg' amasdan, buzmasdan saqlab qoladi. SHuning uchun "ayol qanday bo'lsa, tez orada butun madaniyat shunday bo'ladi."³ Ayol oldidassivilizatsiyamizni o'zgartirish vazifasi turibdi, u "vazifa nafaqat madaniyat, xuddi shuningdek, din bilan ham bog' liqdir."⁴ "Din,—deydi I.A. Karimov, — odamzodni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Din bu dunyoning o'tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini hushyor bo'lishga, harom yo'llardan uzoq yurishga, yaxshi bo'lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi. Biz dinga bundan keyin ham barcha

¹ Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. -Т.: Ёзувчи, 1996. -3 б.

² Розанов В.В. Религия. Философия. Культура. -М.: Республика, 1992. -С. 177-178.

³ Ўша жойда. —С. 179.

⁴ Ўша жойда. —С. 189.

shart — sharoitlarni yaratib beramiz. Diniy rasm — rusumlarga, bayramlarga, diniy tarbiya va ta’limga doimo jiddiy e’tibor beriladi.»¹ Darhaqiqat, mustaqillikdan so‘ng diniy qadriyatlarni tiklash borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Jumladan, «Qurbon hayit» va «Ro‘za hayit» bayramlari qayta tiklandi.

Qurbon hayiti haj marosimi va qurbanlik qilish bilan, **Ro‘za hayiti** esa ramazon oyi mobaynida ruza tutish bilan bog‘ liq diniy qadriyatdir. SHuning uchun Qurbon hayiti hijriy zu —1 — hijja oyining 10—13 kunlarida, ruza hayiti esa shavval oyining 1 — 3 kunlarida bayram qilinadi. Keyinchalik islomiy diniy qadriyatlar (namozgohda ertalab jamoa bilan hayit namozini uqish, ulganlarni yod olib xudoyi, duo — fotiha qilish, Ruza hayiti kuni fitr —sadaqa berish, Qurbon hayitida Olloh yuliga qurbanlik qilish) bilan mahalliy xalqlarning odatlari (arafa kuni is chiqarish, osh ularshish, uzatilgan qiz xonadoniga yuqlov yuborish, hayit kuni yangi kiyim kiyish, «hayitlik» berish, sayil qilish, dam olish, bemorlar, keksa kishilar holidan xabar olish, «kelin salom») aralashib ketgan.

Shaklik an’anasi. Ramazon oyining boshlanish sanasini oldindan aniq aytib bera olish mumkin bulmagan zamonlarda musulmonlar yangi oy chiqishi mumkin bo‘lgan kunlarni shak, ya’ni, «ramazon oyi ekanligi shak — shubhali» deb ataganlar. Agarda usha kuni yangi oy chiqsa—«ramazon oyi», chiqmasa — «shak» deyilgan. « — Shak kunida har bir kishi kun og‘ gan vaqtidan ilgarigacha oy kurilgani tug‘ risida xabar kelib qolishi mumkin, deb ruzador bulib turishi lozim»² edi. SHu tariqa xalqimizda shaklik marosimi paydo bo‘lgan. Shaklik— ramazon oyidan oldin, ruzaga sanoqli kunlar qolganida ota —onani, qarindosh — urug‘ larni, keksalarni, betoblarni, yaqin quni — qushni, tanish — birodarlarni ziyorat qilish, ya’ni holidan xabar olish marosimidir. Shaklik kunlari yaqinlashganida uy —joylar, hovlilar, darvoza oldilari yaxshilab tozalangan, eshik — derazalar yuvilib, toza pardalar osilgan. Shu kunlari dasturxon bezatilgan, darvozalar ochiq turgan. Keksalari bor xonadonlarga o‘zgacha fayz kirgan, uzoq — yaqindan farzandlar, nabiralar, qarindosh — urug‘ lar duo olishga shoshilganlar. Shaklikka

¹ Каримов И. Истиқлол ва маънавият. —Т.: Ўзбекистон, 1994. —15 б.

² Ибодати исломия. —Т.: Мовароуннахр, 1992. —90 б.

kelganlar mezbonga ro‘za kunlarida tanovul qilishi uchun mayizmi, yong‘ oqmi, turshakmi, meva — chevami yoki yog‘ lik patirlarmi olib kelgan. Mehmon va mezbonlar to‘planishib, ramazon oyiga sog‘u — salomat etkazgani uchun Ollohg‘a hamdu —sanolar aytishgan, shukrlar qilishgan. Ular ramazonning qaysi kuni, kimning uyida iftor bo‘lishini ham kelishib olgan.

«**Kelin ko‘rish»** («Kelin salom») marosimi nikoh tuyidan sung birinchi hayitni nishonlayotgan yosh kelinchaklarning mehmon kutish marosimidir. Hayit bayramiga bir necha kun qolganida uzatilgan qizning onasi va opa — singillari is chiqarib, turli pishiriqlar, shirinliklar tayyorlaydi. Yolg‘on yoki chin arafa kuni ona qizi kelin bulib tushgan xonadonga «hayit yuqlovi» (pishiriqlar, shirinliklar) yuboradi. Bu bilan qudalarini, kuyov va qizini hayit bayrami bilan qutlagan buladi. Yuqlovni qizning opa —singlisi, kelinoyisi yoki amma — xolalari olib boradi. Kuyov xonadonida «yo‘qlov» kelishiga maxsus tayyorgarlik ko‘rilib, dasturxon bezatiladi. Chin arafa kuni kechqurun kelinning uyida yaqin qarindosh ayollar va qizlar yig‘ ilib, yuksak mahorat va nozik did bilan «hayit dasturxoni»ni bezatadilar. Hayit kuni kelinchak erta tongda turadi, yangi libosini kiyib, boshiga harir mato tashlab, xonadon a’zolariga birma-bir ta’zim - salom beradi, ularni dasturxonga taklif qilib, ta’voze bilan choy uzatadi.

Bibi Seshanba —oila baxtining himoyachisi, charx yigiruvchi ayollarning homiysi hisoblanadi. U Bahovuddin Naqshbandning ammasi. O‘zbek ayollari bu avliyo onaga sig‘ inib, seshanba kunlari uning sharafiga ziyofat bergen.

Rivoyat qilishlaricha, bir etim qiz o‘gay ona qo‘lida xoru — zor yashar ekan. O‘gay ona har kuni uni sigir boqqani yuborib, qo‘liga bir etak paxta ham berar, to kechgacha ushbu paxtadan ip yigirib kelishni buyurar ekan. Kunlardan bir kuni qizning sigiri qochib bir g‘ orga kiradi. Sigirining orqasidan kirgan qiz g‘ orda yuzlaridan nur yog‘ ilib turgan bir Bibiga duch keladi. Bibi qizning ahvoli bilan tanishgach, unga o‘gay onaning zulmidan qutilib, boy — badavlat, oljanob insonga turmushga chiqishiga yordam beradi. To‘ydan so‘ng Hazrat Bibi qizga shunday nasihat qiladi: «San bu martabaga etding. Mehnating rohatiga va mashaqqating davlatiga mubaddal bo‘ldi. Ammo ulug‘ liq qilib bizni unutmag‘ il!

Endi san mani haqimda osh qilib va yana bu qissani bayon qilib turgil.»¹ Qiz g'orda uchratgan ayol—Hazrat Bibi Seshanba edi.

«Bibi seshanba»ni o'tkazish uchun etti xonadondan (xonodon sohiblari bir nikohli bo'lishlari shart) ozginadan un tilab olinadi. Agar bunday qilinmasa, uyning to'rt burchiga to'rtta tog' orachada un qo'yiladi, keyin undan olib, sut bilan umoch osh qilinadi, kulcha pishiriladi. Marosimga albatta otin oyи taklif etiladi. Otin oyи «Bibi seshanba qissasi»ni o'qib, salavatlar aytib, Qur'oni Karimni sharaflab, Olloh Taologa hamdu sanolar aytadi. SHundan sung umoch osh bilan kulcha beva xotin va etim qizlarga tarqatiladi (erkak kishi eyishi mumkin emas). Kimki ushbu marosimni sidqidildan bajo keltirsa, kuzlagan murodiga etadi, degan diniy qarashlar mavjud.

«Mushkulkushod» va «Bibi Seshanba» marosimlarida matriarxatga borib taqaluvchi (g'or, yetti va b.) simvollar aralashib kelishi kuzatiladi. Shuning uchun ham dinlarning ijtimoiy mohiyatini tadqiq etgan mashhur madaniyatshunos M. Myuller «bir dinni bilgan birorta ham dinni bilmaydi»², deb dinlardagi mushtarakliklarni qayd etadi.

Mavlud Muhammad sallallohu alayhi vassallamning tug'ilgan kunini bayram sifatida nishonlashdir.

«Mavlud marosimlari diniy izdihom — xudoyi shaklida bulib, unda kupchilik qatnashadi. Marosimda Muhammad alayhissalomning tarjimai hollari haqidagi «Mavlud» kitobi uqladi. Keyingi yillarda bu odat xotin — qizlarning xonodon marosimiga aylanib, otin —dindor bekalarning diniy ziyofati, amru ma'rufi, Qur'on oyatlaridan yod uqish kabi ma'rakasiga aylanib ketgan.»³

Xatmi Qur'on qiz bolaning Qur'oni Karimni xatm qilgani munosabati bilan o'tkazadigan yig' inidir. Qizlar yakka holda yoki guruh bulib Qur'ondan saboq olgan. O'qish yakunida saboq olgan qiz uyida yig' in, ziyofat bergen. Unda qizning diniy — ma'rifiy bilimi, ma'naviy sifatlari, mehmon kutish, uy, hovli tutish madaniyati ham sinab kurilgan.

¹ Қиссаи Биби Сешанба. Биби Мушкул күшод. —Жиззах. Жиззах вилоят матбуот бошкармаси қошидаги ноширлик — мухаррирлик бўлими, 1992. — 5 — 6 б.

² Қаранг: Религия и общество. Хрестоматия по социологии религии. - М.: Аспект- Пресс, 1996. -С. 9.

³ Махмуд Саттор. Ўзбек удумлари. —Т.: Фан, 1993. —190 б.

Aqiqa an'anasi. Farzand Olloh Taoloning ota —onaga beradigan ulug' ne'matidir. YAratganni ulug' lash va Uning ne'matiga shukr aytish ota —onaning vazifasidir. Qur'oni Karimda deyiladi: «Osmonlar va yer Ollohnning mulkidir. U O'zi xohlagan narsani yaratur. U O'zi xohlagan kishiga qizlarni hadya etur va O'zi xohlagan kishiga ug' illarni hadya etur. Yoki ularni egizak ug' illar va qizlar qilur va O'zi xohlagan kishini tug' mas (bepusht) qilib qo'yur. Albatta U (barcha narsani) bilguvchi va (O'zi xohlagan narsani yaratishga) qodirdir».¹ Hddislarda esa: «Har bir tug' ilgan bola o'zi uchun so'yiladigan aqiqasiga garovdir. Ettinchi kuni aqiqani so'yib, bolaga ism qo'yishadi va uning ilk bor sochi ham olinadi»²,— deyiladi.

Aqiqaga ayollar maxsus tayyorgarlik ko'radi, ular farzandiga uzoq umr tilab, xayr —sadaqa qiladi, kelin, qaynona va qayinsingillar yig' ilib bolani cho'miltiradi. Bu marosim, ayollar tasavvurida, farzandni iymonli, e'tiqodli va sog' lom o'sishiga yordam beradi, ayollarga esa farzandi tarbiyasi uchun Olloh oldida mas'ullik yuklaydi.

2.3. O'zbek ayollarining oilaviy - maishiy marosimlari va ularning modernizatsiyalashuvi

Mamlakatimiz taraqqiyotining g'oyaviy - ma'naviy asoslari haqida to'xtalib, I.A. Karimov ta'kidlaydi: «...men milliy istiqlol g' oyasi bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tahlikali dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab -avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog' i zarur, deb bilaman».³ «Shuni alohida ta'kidlamoqchimanki, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma'naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish biz uchun asosiy maqsaddir.»⁴

¹ Куръони Карим.-Т.: Чўлпон, «Шўро» сураси. 49 -50 -оятлар. 1992. -361 б.

² Ислом одоби ва маданияти. -Т.: Чўлпон, 1995. -105 б.

³ Каримов И.А. «Миллий истиқлол г'ояси: асосий тушунча ва тамоиллар» рисоласидаги сўз боши. // Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз Т.9. -Т.: Ўзбекистон, 2001.-222 -223 б.

⁴ Ўша жойда. - 8 б

O‘zbek xalqi etnomadaniyatida nafaqat tarixiy - madaniy an’analar, shu bilan birga, bugungi yoshlar ma’naviyatiga ta’sir etuvchi ijtimoiy - tarbiyaviy tajribalar ham mavjudki, ulardan samarali foydalanish istiqlol mafkurasini badiiy - emotsiyal va ommaviy vositalar bilan boyitadi. Buning uchun esa etnomadaniy an’analarni milliy istiqlol g‘oyasi maqsadlari bilan uyg’unlashtirish, jamiyat taraqqiyoti kun tartibiga qo‘yayotgan vazifalarga yo’naltirish, hatto o‘zgarib borayotgan dunyo talablariga muvofiq modernizatsiyalash zarurdir. I.A.Karimov 2005 yil 28 yanvardagi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qushma majlisidagi ma’ruzasida jamiyatni modernizatsiyalash konsepsiyasini e’lon qildi.¹ Bu konsepsiya ma’naviy - madaniy sohaga ham bevosita taaluqlidir.

O‘zbek ayollari etnomadaniyatining eng muhim qismi bo‘lgan oilaviy - maishiy marosimlar bir - biriga dialektik bog‘liq ikki yo’nalishda ijtimoiy borlig‘ imizga ta’sir ko‘rsatmoqda. **Birinchisi**, oilaviy - maishiy marosimlardan tarixiy - madaniy meros sifatida foydalanish, **ikkinchisi**, ulardagи transformatsiya, innovatsiya va innovatsiyalarni qo‘llab - quvvatlash (zamonaviylashtirish)dir.

O‘zbek ayollari ijtimoiy - tarixiy va ma’naviy -diniy omillar ta’sirida oila, farzandlar tarbiyasi, maishiy turmush bilan mudom band bulib kelgan. Oilaviy - maishiy hayotni tashkil etish, boshqarish, uni xalqimiz mentaliteti va an’analariiga, intilishlariga xos tarzda shakllantirish ayollarimiz zimmasiga tushgan. Farzand tug‘ish bilan bog‘liq psixofiziologik dollar ayollarni dunyoga eng yaqin kishilari - farzandlari, eri, nevaralari, qarindosh - urug‘ lari orqali qarashga o‘rgatgan.

Ayniqsa ketma -ket farzand tug‘ish, tabiiy ravishda, ayolni oilaga, uy muhitiga bog‘lab qo‘yan. Bu esa ayollarda erkaklarnikidan farq qiluvchi axloqiy tushunchalarni, oilaviy - maishiy hayotdagi barqarorlikni ta’minlovchi urf -odatlar, marosimlar, an’analarni yuzaga keltirgan.² Shuning uchun oilaviy - maishiy marosimlarning tashkilotchilari, avlodlardan avlodlarga eltuvchilari, asosiy ishtirokchilari - sub’ektlari ayollardir.

¹ Қаранг: Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз — жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. // Халқ сузи, 2005, 29 январ.

² Қаранг: Женщина в мифах и легендах. -Т.: Глав. ред. энцик., 1992. - С. 7.

Oilaviy - maishiy marosimlar ijtimoiy - funksional nuqtai nazardan: a) oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga; b) yoshlarni oilaviy - maishiy hayotga o'rgatishga; v) yangi oila qurishga; g) sog'lom farzandlar tarbiyalashga; d) dam olish va hordiq chiqarishga; e) qarindosh- urug' chilik an'analarini davom ettirishga qaratilgandir. To'g'ri, oilaviy - maishiy marosimlar oilaning xo'jalik yuritish, reproduktiv vazifalari, oila a'zolarining sog'ligini saqlash kabi funksiyalari bilan ham bog'liqdir. Aristotel oilaning rang-barang va murakkab munosabatlardan iboratligini nazarda tutib, uni «davlatning bo'lagi»¹ deb atagan. Shuning uchun oilaviy - maishiy marosimlar davlat va oila hayotining barcha qirralari bilan bog'liq holda transformatsiyaga uchraydi. Bizning fikrimizcha, ushbu qirralar oilaviy-maishiy marosimlarning yuqoridagi ijtimoiy funksiyalarida etarli darajada o'z aksini topadi.

Oilaviy- maishiy marosimlarda umumetnik, sinfiy va shajaraviy (oilaviy - nasliy) an'analar qorishib, bir-biriga dialektik bog'lanib keladi.² Biroq, bizning fikrimizcha, bunday klassifikatsiya qilish uchun oilaviy - maishiy marosimlar ijtimoiy voqelik sifatida maxsus tadqiq etilishi zarur. Biz uchun esa oilaviy - maishiy marosimlarning an'anaviy - tashkiliy nomlanishidan kelib chiqish yetarlidir.

"Suyunchi" aytishda xalqimizning etnomadaniy xususiyatlari uz aksini topadi. Masalan, "Suyunchi" keltirgan odam xabari kishilarga qanday ta'sir qilishini, xabar kimga -qari yoki yosh, ayol yoki erkakka muljallanganini, ular xabarga qanday munosabatlar bildirishini oldindan bilishi kerak bo'lgan. Badxabar keltirganni xalqimiz yoqtirmagan, xushxabar keltirganni siylagan, aziz mehmon deb qarshilagan. Natijada, uzoq rivojlanish jarayonida xabar etkazish uziga xos ruhiy-ma'naviy voqeaga aylangan. Xabar xasta yo keksa (buvi, buva)larga yuborilgan bulsa, gapni uzoqdan, his - hayajonga berilmay, o'ta bosiqlik bilan etkazilgan. Bundan tashqari, xabarning yangiligi, qancha kutilgani, xushxabar yoki badxabarligi ham hisobga olingan. Xabarchini taqdirlash, suyunchi berish

¹ Аристотель. Всякая семья составляет часть государства // Семья. Кн. 2. -М.: Политиздат, 1990. -С. 41.

² Қаранг: Плахов В. Д. Традиции и общество. Опыт философско-социологического исследования. -М.: Мысль, 1982. - С. 134-135.

vazifasini asosan ayollar bajargan. Suvni avval chaqaloqning boshidan, keyin ung elkasi, sungra chap elkasiga quyishgan. Bu «Olloh avval insonni boshini yasagan, insonni ikki elkasida ikki farishta utiradi, Olloh har bir ishni o'ng tomondan boshlashni buyuradi», degan tasavvurlarni anglatgan.

Beshik to'yi - o'zbek xalqining keng tarqalgan chilladan keyin o'tkazadigan marosimidir. U «Beshikka solish» marosimidan dabdabaligi, kengligi, ishtirokchilarining ko'pligi bilan farq qiladi va birinchi farzandga bag'ishlab o'tkaziladi.

Beshik to'yi deyarli transformatsiyaga uchramay yashab kelayotgan marosimlardan hisoblanadi. To'g'ri, hozir beshik yoniga quda tomon karovat, kolyaska, o'yinchoqlar ham qo'shib keltiradi, lekin bu narsalar marosim negizidagi etnomadaniy mohiyatni, mazmunni o'zgartirgan emas, bu mazmun, mohiyat kelin - kuyovni farzand bilan tabriklash, ularning turmushiga yordam berish, ahil, inoq, serfarzand yashashlariga ko'maklashishdan iboratdir. Oila ijtimoiy nigoh ostida, uning mustahkamligi barchaning ishidir. Gegel oila «ruhning bevosita substansialligi» sifatida sevgiga qurilgan «birlik»¹ deganida ana shunday ijtimoiy uyushqoqlikni nazarda tutgan.

Qadimda yosh kelinchaklar sochini qirq kokil o'rib, uchiga po'pak taqqan. Po'pakning uchlariga tanga va qo'ng'iroqchalar osilgan. Ayollar po'pakni birinchi nabira ko'rgunlariga qadar taqqanlar. Nabira ko'rib, buvi bo'lishgach, sochini ikki o'rim qilib, kulota taqqanlar. Kulota taqish, buvilikni bo'yniga olishdir. Nabira ko'rgan ayolning kulota taqmay, sochini mayda qilib o'rib yurishi uyat hisoblangan. Bu marosimning modernizatsiyalashgan ko'rinishda uchramaydi.

Beshikkertti qadimda qabilalar o'rtasidagi urush - janjallarga chek qo'ygan, tinch qo'shnichilik munosabatlarini mustahkmlagan, ikki oila urtasida mehr - oqibatni mustahkamlashga yordam bergen. «Beshikkertti» qilingan yigit va qiz bir -birlariga nisbatan g'oyibona mehr, intiqlik, hurmat bilan voyaga etishgan. Oilalar ko'p yillar davomida bir - birini sinab, bilib borishgan, vaqt kelganida uyushgan

¹ Гегель. Семья- это органическое целое. Брак есть религиозный акт // Семья. Кн. 2. -М.: Политиздат, 1990. -С. 147.

tarzda tuy utkazishgan. Yoshlar o'qish, mehnat va hunarda, ma'naviy kamolotga intilishda bir - birlariga munosib bo'lishga harakat qilgan.

Hozir bu marosim Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlarida uchraydi, xolos.¹

Soch olish gudakning tug'ma sochini olish bilan bog' liq eng qadimgi marosimdir. Uni izzat - hurmatga ega otaxon yoki onaxon olib borgan. U tor oilaviy davrada utkazilgan.

Xalqimiz qadim zamonlardan «Tish chiqishi» marosimini utkazib keladi. Birinchi tish chiqishi ko'p hollarda ancha og' ir bulib, turli kasalliklarga olib kelgan. Keksalarning aytishlaricha, tegishli rasm - rusumlarga amal qilinsa, bolaning tishlari tekis, og'riqsiz chiqar emish.

Hozir u oila davrasida bola boshidan oq juxori sochib utkaziladi. Ilgari unga qudalar, qarindoshlar chaqirilgan.

Birinchi qadam bolaning mustaqil qadam qo'yishini nishonlash marosimidir. Bolaning onasi, buvisi, yaqin kishilari hamda qo'shni bolalar tuplanishib, bolaning oyoqlarini chiroyli ip bilan bog' lab, orasidan kulcha yumalatishgan. Ushbu kulchaga ega bulish uchun yig'ilgan bolalar jon — jahdlari bilan harakat qilgan, chunki bunday kulcha xosiyatli, tabarruk sanalgan.

«Ajdodlarimiz bu marosimda «bolaning beli baquvvat bulsin» deb, beliga belbog' bog'lashgan; «to'qlik bo'lsin, bolaocharchilikni bilmisin!» deb mazali kulchalarni kichkintoylarga tarqatishgan; «suvdek serob bo'lsin!» deb, bolaning qadam bosgan erlariga suv sepishgan; «bolaning hayoti shirin bo'lsin!» deb, boshidan shirinliklar sochishgan; «chiroyli bo'lsin!» deb, yo'llariga gullar sochishgan; «boy bo'lsin!» deb, boshidan pullar sochishgan; «kasalga chalinmasin!» deb, isiriq tutatishgan; «ko'z tegmasin!» deb, ko'zmunchoqlar taqishgan; «kinna kirmasin!» deb, duolar o'qishgan va hokazo». ²

Hozir «Birinchi qadam» kichik oilaviy marosim tarzida onda-sonda uchraydi.

¹ Карапг: Махмуд Саттор. Ўзбек удумлари. —Т.: Фан, 1993. — 23 б.

² Карапг: Корабоев У. Ўзбек халки байрамлари. —Т.: Шарқ, 2002, 121 — 122 б.

Sunnat musulmonchilikda farz va qarz sanalgan o‘g‘il bolaning xatna qilish bilan bog‘liq marosimdir. U, birinchidan, to‘yga tayyorgarlik ko‘rish odatlari («Maslahat oshi», «Jar—to‘yga aytish», «Tandir soldi», «Qozon qurdi», «Sabzi to‘g‘rash»), asosiy tadbirlar («Mehmon kutish», «Qo‘noq olish», ziyofat — bazm berish, tomosha, o‘yinlar uyushtirish), uchinchidan to‘ydan keyingi tadbirlar (to‘yda xizmat qilganlarni taqdirlash, ularga alohida ziyofat berish, sovg‘ alar in’om etish, «to‘y bola»ning holidan xabar olish)dan iboratdir.¹ Ularning tashkilotchilari asosan erkaklardir, ammo «Paxta solar» marosimi ayollarga taalluqlidir.

«Paxta solar» kelinning onasi sunnat to‘yiga olib keladigan yangi ko‘rpa — to‘shaklar bilan bog‘ liq marosim bo‘lib, u kelinning ota — onasi xonadonida o‘tkazilgan. Bu marosimni odatda yoshi ulug‘, piru—badavlat, bir nikohli onaxon olib borgan.

Ko‘rpa qavishga ayollar, birmunchadan, to‘y qilayotgan xonadon egalariga yordam berish, ikkinchidan, duo, savob olish, uchinchidan, Alloh o‘zlarini ham shunday to‘ylarga etkazishini so‘rash, to‘rtinchidan, yordam barona muloqot qilib, dam olish va hordiq chiqarish uchun chiqqanlar.

«Muchal to‘yi»ni xalqimiz 12-13, 24-25, 36-37, 48-49, 60-61 va hakozo yoshlarda nishonlab keladi. U erkaklarga ham, ayollarga ham taalluqlidir.

Ilgari u oila davrasida nishonlangan, hozir unda qarindosh-urug‘lar, hamkasblar, qo‘shnilar ham qatnashishi kuzatiladi.

Nikoh to‘yi o‘zbek xalqi etnomadaniyatidagi muhim saqlanib kelayotgan, tashkiliy nuqtai nazardan transformatsiyalarga uchragan bo‘lsa-da, ijtimoiy mohiyatiga ko‘ra insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi milliy qadriyatlardan biridir. O‘zbek ayollari unda bajariladigan urf-odatlarga, rasm-rusumlarga bosh-qosh bo‘lib kelgan.

Ayol-onas farzandi tug‘ilganidan boshlab, sep yig‘a boshlagan. Bu odat qiz bola tug‘ilganida ayniqla yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xalqimiz qiz bola beshikka tushdi, sarposi sandiqqa tushdi» degan maqolni bejiz yaratmagan.

¹ Каранг: Ўша жойда. —123 б.

Nikoh to‘yi bilan bog’liq «qiz ko‘rar» yoki «sovchilik» udumi muhimdir. Ushbu udum yoshlар taqdiriga hal qiluvchi ta’sir etgan. Sovchilik odatda gapga chechan, uddaburon, shu bilan birga, mahalla-ko‘y orasida hurmat- e’tiborga sazovor ayol zimmasiga yuklatilgan. U ayollardan katta mas’uliyat, aql-farosat, ziyraklikni talab etgan. Sovchilar ko‘z ostiga olingan xonadon sohiblarining tagtugini, kelib chiqishini, mahalla-kuyda tutgan o‘rnini, bo‘lg‘usi kelinning xulqatvorini, qo‘ni-qo‘shni, tanish- bilishlardan surishtirishgan.

Hozir juftini tanlash yoshlarning ixtiyoridadir. Yigit va qiz uchrashib, bir-birlarini sinab ko‘rishadi, agar ular bir-biriga mos kelsa, «Oq o‘rar» marosimi o‘tkaziladi. Oq o‘rar yoki «Non sindirish» marosimi ikki yoshning boshi bog‘ langanligi belgisi hisoblanib, shu marosimdan so‘ng qiz egalik sanaladi va uning uyiga boshqa sovchilar kelmaydi.

Fotiha qilish uchun kuyov tomonidan ikkita-uchta erkak, ikkita ayol kelin xonadoniga tashrif buyuradi. Har ikkala tomon to‘y kunini belgilab, sarf-xarajatlar haqida kelishib oladi.

«Uy ko‘rar» kelin tomonidan ikki-uch nafar ayol kuyov yigit xonadoniga «uy ko‘rgani» tashrif buyurishidir. Marosimda asosan ayollar ishtirot etadi.

Ular kuyovning uy-joyini, kelin uchun ajratilgan xonalarni ko‘zdan kechirib, kelin sepini qaerga va qanday joylashtirishni rejalashtiradi. Bu marosim hozir ham nikoh to‘yining muhim qismi hisoblanadi.

«Mod yoyar» alohida marosim sifatida XX asrning 70 — yillaridan keyin paydo bo‘lgan. Undan oldin kelinning sepini nikoh to‘yining ertasiga kuyov xonadonida «yotib qolgan» ayollar yasatishgan. P.Kabirxo‘jaevaning ta’kidlashicha: «1970 — yillardan keyin «mol yoyar» marosimi uchun maxsus bir kun (odatda, nikoh to‘yidan 6 — 7 kun oldin) belgilangan».¹

O‘zbek ayollari etnomadaniyatidagi dam olish va hordiq chiqarish usullarini kalendar bayramlari, rekreativ sayillar, tabiat bilan bog‘ liq marosimlarda ko‘rishimiz mumkin.

¹ Кабирхўжаева Пўлатхон. 1900 йилда туг илган. Тошкент шаҳар Чилонзор туман, Саноат кўчаси 19—уйда истиқомат қилган. 1996 йил декабр ойида вафот этган. 1994 йил, 23-мартдаги сухбат; Сафаров О., Махмудов М. Оила маънавияти. -Т.: Маънавият, 1998. -82 б.

Kalendar bayramlariga yilning ma'lum bir fasllarida, oylarida o'tkazish an'anaga aylangan xalq bayramlari, marosimlari kiradi. Ularni U.H. Qoraboev «ekomadaniy an'analar»¹, Iso Jabborov «mavsumiy marosimlar»² deb ataydi. Bizning fikrimizcha, ushbu etnomadaniy tadbirlar mavsumiy (kalendor) xarakterga ega bo'lib, ularda insonning tabiatdagi o'zgarishlar (uyg'onish, so'lish yoki fasllarning almashishi)ga munosabati aks etadi. Tabiatdagi o'zgarishlar inson ruhiga, kayfiyatiga, sog' ligiga ta'sir etgan, ibridoiv davrdagi kosmologik qarashlar va tasavvurlar beiz ketmagan. Inson o'zini, hayot tarzini, turmushini tabiat in'omlari bilan bog' liqligini qanchalik chuqur anglagach, uni shunchalik rang-barang qarashlar, urf - odatlar va marosimlarda aks ettirgan.³

¹ Қаранг: Карабаев У.Х. Традиционное народное творчество: проблемы возрождения и развития. -Т.: Фан, 1991. -С. 78.

² Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. —Т.: Ўқитувчи, 1994. -192 б.

³ Қаранг: Корабоев У. Маданий тадбирлар. -Т.: Картография фабрикаси, 2003. -183 б.

XULOSA

O‘zbek ayollari etnomadaniyatida xotin-qizlarimizning o‘ziga xos turmush tarzi, avlodlararo muloqot an’analari, dunyoni anglash, idrok etish usullari, oilaviy-maishiy marosimlari, ma’naviy boyliklari, ijtimoiy normalar, madaniy ijod namunalari jamlangan. Ushbu serqirra ijtimoiy-madaniy voqelikni o‘rganish bizni quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, madaniyat ijtimoiy tajriba va an’analarga asoslangan voqelik sifatida kishilik jamiyatini, birligini shakllantirgan, antropo sotsiogenezda biologik ehtiyojlardan farq qiluvchi hususiyatlarini rivojlanтиr gan.

Etnomadaniyat esa xalqning, millatning jug‘rofiy, biologik va ijtimoiy shart-sharoitlar ta’sirida yaratgan «lokal stereotip»ning shakllanishi natijasidir. Har bir kishilik uyushmasi o’z an’analariga muvofiq ushbu «lokal stereotip»ni saqlab qolib, uni turmush tarzida mustahkamlagan, guruhlarga bo‘linib ketishdan asrab kelgan. Xalq, millat mavjud ekan uzoq ijtimoiy - tarixiy tajribaga asoslangan «lokal stereotip» ushbu xalqning, millatning o‘zligini namoyon qiluvchi etnomadaniyatining uzagi sifatida barqaror turadi.

Ikkinchidan, etnomadaniyat lokal xususiyatga ega bo‘lsa-da, u ijtimoiy - tarixiy jarayonlarning ta’sirida transformatsiyaga uchraydi, ininnovatsiyalar yaratadi. Ilmiy - texnika, ommaviy axborot vositalari mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda ininnovatsiyalar unga ta’sir etmay, ma’lum bir qadriyatlarini, belgilarini uzgartirmay qolmaydi. Shuning uchun etnomadaniyat ikki-ichki (o‘zak) qism va tashqi (ustki) qismlardan iboratdir. Etnomadaniyatda o‘zak ustunlik qiladi, u «yopiq» sistemadir. O‘zbek ayollari etnomadaniyati uzagiga kiruvchi diniy, oilaviy - maishiy marosimlar, urf -odatlar, rasm -rusumlar, bayramlar, mentalitet, turmush tarzi, xo’jalik - madaniy tiplar duch kelgan innovatsiya va innovatsiyalarni qabul qilavermaydi, ularga muhimlik, hatto konservativlik xos. Biroq ustki qism -ta’lim, ilm -fan, ma’rifat, ijtimoiy faoliyat, kishilararo aloqalar, ommaviy axborot vositalari, institutsional munosabatlar, mo’da kabilar bilan bog‘liq madaniy hayot mudom izlanishda, uzgarishda, modernizatsiya ta’sirida bo‘ladi. Hech bir etnomadaniyat ushbu ta’sirdan chekkada qololmaydi. O‘zbek

ayollari etnomadaniyatida bugun bir tomondan, o'zak qismning muhim saqlanayotgani, ikkinchi tomondan, ustki qismning zamonaviy hayot tarzini, ilm-fan yutuqlarini, sivilizatsion munosabatlarni uzlashtirishga, innovatsiya yaratishga, innovatsion izlanishlarda faollik ko'rsatishga intilayotgani kuzga tashlanadi. Bizning fikrimizcha, o'zak va ustki qismlarning antagonistik qutblarga aylanishiga yo'l qo'ymasdan ular o'rtasida hozir shakllanayotgan uyg'unlikni, integratsiyani, yaxlitlikka intilishni saqlab qolish va mustahkamlash zarur. Ustki qism mudom izlanishda, tashqi ta'sirlar ostida bo'lgani uchun unda goho o'zak qismga mos kelmaydigan, hatto destruktiv elementlar paydo bulishi mumkin. Ularning o'zak qism bilan munosabatlari, A. Toynbi ta'biri bilan aytganda, «mudom og'rinish va ziddiyatli» kechgan, ba'zan esa ular urtasida «yovlik va aggressivlik hissini uyg'otgan»¹

Uchinchidan, o'zbek ayollari etnomadaniyati o'ziga xos ijtimoiy - tarixiy voqelik sifatida xalqimiz madaniyatini, madaniy hayotini rang-baranglashtirib, ichki jarayonlarini jonlantirib keladi. Variantlilik madaniyatning rivojlanish shartidir. Bundan tashqari, aynan xotin - qizlarning oilaviy an'analar, urf -odatlar, tarixiy - madaniy merosga sadoqati tufayli o'zbek xalqi etnomadaniyati uzligini asrab kelmoqda. Shuning uchun xotin - qizlarni xalqimiz tarixiy - madaniy merosini urganish va targ'ib qilishga, yoshlarni ajdodlarimiz tajribasiga sadoqatli irodali inson qilib tarbiyalashga kengroq jalb etish milliy taraqqiyot oldidagi vazifalardan biri bulib qoladi.

To'rtinchidan, o'zbek ayollari etnomadaniyati Respublikamizda milliy va etnosotsial munosabatlarni mustahkamlash, milliy madaniyatlar o'rtasidagi integratsion aloqalarni chuqurlashtirish omili hamdir. Madaniy - gumanitar sohalarda xizmat qilayotgan xodimlar va kasb - kor egalarining 70 - 80 % yaqini xotin - qizlar ekani aynan ma'naviy - madaniy ishlarning asosiy sub'ektlari, rivojlantiruvchi kuchlari ayollar bo'lib qolayotganidan darak beradi. Biroq ushbu sohada Yurtboshimiz ilgari surayotgan jamiyatni yangilash va mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasiga muvofiq uzgarishlar sodir bo'lishi lozim.

¹ Карап: Тойнби А. Дж. Цивилизация перед суром истории. -М.: Рольф, 2002. -С. 473.

Masalan, xotin - qizlarning ijtimoiy -siyosiy, huquqiy, iqtisodiy madaniyatlarini oshirish, ma'naviy - madaniy sohadagi islohotlarda dadil ishtirok etishiga erishish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashida milliy va umuminsoniy qadriyatlargacha tayanishini har tomonlama qullab - quvvatlash kabilar shular jumlasidandir.

O'zbek ayollari etnomadaniyatining o'ziga xosligini asrash, targ'ib qilish va yanada rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar:

-xalq ijodi va amaliy san'atini rivojlantirishga qaratilgan xususiy korxonalar, firmalar, sexlar va ustaxonalarini ma'lum bir davrlarda soliqlardan ozod qilish, ularning shakllanishiga yordam beruvchi foizsiz kreditlar berishni uyushtirish;

-xalq an'anaviy ijodini ilmiy urganish va rivojlantirishga chet ellik mutaxassislarni, investorlarni jalb qilish;

-ayollarning madaniy dam olishi va hordiq chiqarishini umumdavlat ahamiyatiga ega vazifa sifatida qarab maxsus dastur ishlab chiqish;

-Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshida o'zbek ayollari etnomadaniyatiga oid filmotekalar fondini tashkil qilish zarur. Xalqimiz madaniyatini targ'ib qilishda faol qatnashayotgan xotin- qizlarni rag'batlantiruvchi jamg'armalar tuzish va faxrlar unvonlarga taqdim etish tartiblarini ishlab chiqish ham maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. - Т.: “Ўзбекистон”, 2009. - 40 б.
2. Каримов И.А. Жаҳон молиявий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари . - Т.: “Ўзбекистон”, 2009.
3. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепсияси. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Т.: “Ўзбекистон” , 2010. - 56 б.
4. Каримов И.А. Буюк ва муқаддассан мустақил ватан. Ўзбекистон мустақиллигининг 20 йиллигига бағишлиланган маъруза. - Т.: “Ўзбекистон” , 2011.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Т.: “Маънавият” , 2011.
6. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. - Т.: “Ўзбекистон”, 2011.- 48 б.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. - Т.: “Ўзбекистон”, 2012.- 440 б.
8. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалиқ қоидаси бўлиши керак. “Ўзбекистон”, 2017.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

9. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги қонуни. Тошкент 1997 - йил, 29-август
10. Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Тошкент 1997 - йил, 29 – август

11. Ўзбекистон Республикасининг Конститутсияси. Т.: “Ўзбекистон”, 2014.
- 160 б.

Monografiya, darslik va o`quv qo`llanmalar:

12. Мирзакалон Исмоилий. Инсон одоби. Т., 1989.
13. Имом исмоил Ал-Бухорий. Ал-адаб муфрат. Т., 1990.
14. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. Т., «Ўзбекистон», 1991.
15. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т., «Фан», 1993.
16. Мусурманова О. Ўқувчилар маънавий маданиятини шакллантириш. Т., 1993. Шарафиддинов О. Истиқлол фидоийлари: Мустафо Чўқай, Чўлпон, Отажон Хошим. - Т.: 1993.
17. Ибраҳимов А., Султонов X., Жўраев Н. Ватан туйгуси . Т., Маънавият жамият тараққиётининг асоси. «Ўзбекистон овози», 1995, 16 феврал.
18. Юсупов. Э. Маънавият мезонларига янгича ёндашув. «Ўзбекистон овози», 1995, 22 апрел.
19. Усманов М. Донишмандлар одоб-аҳлоқ ҳақида. Т., «Фан», 1996.
20. Мусурманова О. Маънавият қадриятлар-соғлом авлодни тарбиялаш воситаси.
21. Норбой Ортиқов. Маънавият: миллий ва умуминсоний қадриятлар. Т., «Ўзбекистон», 1997.
22. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. -Т.: Шарқ, 1997.
23. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. Т., «Шарқ», 1998
24. Чориев А. Инсон фалсафаси. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти (биринчи китоб). –Тошкент, 1998. – 223 б.
25. Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат. Т., «Шарқ», 1998.
26. Шарафиддинов О. Сардафттар саҳифалари: мақолалар, хотиралар. - Т.: эзувчи, 1998.

27. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Тошкент: Университет, 1998. – 184 б.
28. Шиммел А. Жонон менинг жонимда. - Т.: Шарқ, 1999. -165 б.
29. Жўраев Н. Тафакурдаги эврилиш. Истиқлол изтироблари ва қувончлари ҳақида мулоҳазалар. –Тошкент: Шарқ, 2001. –240 б.
30. Чориев А., Мансуров А. Ғоя, тарих ва миллий тафаккур. Т.: Янги аср авлоди, 2002.
31. Эргашев И., Шарипов Б., Жакбаров М. Жамиятни эркинлаштириш ва маънавият - Т.: Академия, 2002.
32. Отамуродов С, Отамуродов С. Ўзбекистонда маънавий-руҳий тикланиш.- Т.:2003
33. Сафаева С. Аёллар масаласи: Умумижтимоий ва миллий жихатлар. - Т.: Ўзбекистон, 2003. -39-40 б.
34. Умарова Н. Миллий истиқлол ғоясини умумий таълим тизимида сингдириш технологияси. 2003.
35. Қодиров А. Анъанавий жамият ва уни модернизациялаш стратегияси. – Тошкент, 2006. -Б. 21.
36. Мамашакиров С.М, Ш.Тогаев. Эркин ва фаровон ҳаёт қурилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. Тошкент, Маънавият 2007. – 223 б.
37. Эргашев И. Тараққиёт фалсафаси. - Т.: Академия, 2008.
38. Эргашев Ф., Эргашев И. Фидойилик - ҳаёт мазмуни. -Т.: Ўзбекистон, 2008.
39. Эргашев Р. Сиёsat фалсафаси. - Т.: Академия, 2008.
40. Қосимов Б. Миллий уйғониш: Фан ва маърифат. –Тошкент: Маънавият, 2010. – 400 б.
41. Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлар. -Т.: Ўзбекистон, 2015.-38 б

Matbuot nashrlari:

42. Ma'naviyat imondan boshlanadi. «Guliston». 1995, 1-son.
43. Ibroximov A. Poklik- miliy tiklanish kurtagi. «Tafakkur», 1996, 6- son.

44. Шониёзов Ш.К. Ўзбек халқининг этногенезига оид баъзи назарий масалалар. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998, 6 - сон. -33 б.
45. Алимасов В. Аёлсиз кошона - ғамхона // Маърифат, 2002, 7 март.
46. Мухиддинов М. Аёллар илм-фанда. // Оила, 2004, 1-сон. -29-30 б.
47. Ҳайитов О. Тадбиркор аёл қандай бўлиши керак? // Оила, 2004, 1-сон. -62 б. Отамуратов С.О. Миллий ривожланиш фалсафаси. (Сиёсий-фалсафий киралари) –Тошкент: Академия, 2005. –Б.32.
48. Хоназаров К.Х. Глобаллашув ва фан фалсафаси. –Тошкент: Фалсафа ва хуқуқ институти. 2009. – 135 б.

Internet saytlari:

49. www.ziyonet.uz
50. www.uforum.uz
51. www.uzbekkino.uz
52. www.gov.uz
53. www: mfa. uz.
54. www. manaviyat.uz.pak.uz
55. www.info xs.uz.